There are many exercises that can be used, but none will be of much value unless the student really wants to change. Three exercises are listed below that seem to be most universally successful. The first is the panting exercise. Ask the students to pant very rapidly and, as they do so, to place one hand on the abdomen, just below the rib cage. After this is done a few times, ask them to gradually slow the panting down to about one breath (one inhalation and exhalation) per second. A second exercise asks the students to bend over at the waist with the hands on the bottom of the rib cage, fingers spread apart. Have the students inhale deeply. The singers will

breathe from the diaphragm because that is the only way one can breathe in that position. After taking the breath, have the students stand erect, hands still on the rib cage and blow the air out in a steady stream, making a hissing sound. The ribs should come in slowly as this occurs. This hiss can later be changed to a singing tone. A third exercise is that which combines the breathing with pitches and rhythms. This is more”¹⁰

“6.2.1 Abdominal Diafragmali nafas.

Yaxshi kuylashda to’g’ri nafas olish muhim. Ko’pchilik xonandalar nafasini chuqur, kerakligicha olmaydilar. Oddiy nafas bu hayot , so’zlashuv uchun mos.

Yosh xonandalar shuni yodda tutishlari kerakki kuylash uchun asosan qorin bo’shlig’I, diafragmada (qovurg’ada) olingan nafas qulayir.

O’rta qovurg’a biqin nafasi afzalliklari:

1. Xonanda tomoq mushaklarini zo’riqtirmay keragicha nafas olishi kerak.
2. Xonanda ko’proq nafas olishi mumkin.
3. Xonanda nafas olish jarayonini nazorat qilishi kerak.

Barcha nafas olish yo’llarini kuylashga tadbiq etayotganda qomat to’g’ri bo’lishi kerak. Xonanda o’z og’irligini ikki oyoqga bir me’yorda taqsimlab, barmoqlariga tayanib tirishi lozim. Qomatni ko’krak qismi yuqori ko’tarilib, yelka biroz egiladi, lekin o’ta bukilib ketilmaydi. Dars jarayonida talabalarga stulda qanday o’tirish va kuylash xolati haqida muntazam eslatib borish zarur. Bunda kreslo yoki stulga taqalib o’tirmasdan oyoqlar erga mustahkam qo’yilgan holatda o’tirilishi kerak. Bir qator ovoz mashqlarini turgan holatda, nafaslarni tog’ri olib kuylatish zarur.”

Nazorat savollari

- 1. Qanday nafas olish yo’llarini ko’rsatib bera olasiz?**
- 2.Xor kuylash san’atida qanday nafas olish yo’llari qo’llaniladi?**
- 3.Zanjir nafas qanday qo’llaniladi?**

¹⁰ Choral Techniques By: Gordon Lamb c o n n e x i o n s Rice University, Houston, Texas < <http://cnx.org/content/col11191/1.1/> > 193-195

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 16.Sharafiyeva N. Xor sinfi. Musiqa nashriyoti. O'quv qo'llanma-T.: 2005.
- 17.Shomaxmudova B.V. Xor lug'ati. Toshkent. "Musiqa" 2009.
- 18.Romanovskiy N. Xorovoy slovar Izd.3. Uchebnoe posobie-L.:Muzika. 1980.
- 19.Choral techniques By: Gordon Lamb Onlaine:
<<http://cnx.org/content/col11191/1.1/>>
Connexions Rice University,Houston,Texas
- 20.J.Shukurov "Dirijyorlik" "Istiqlol"T-2006

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. B.Umidjonov "Xor asarlari" G'.G'ulom. T.,1980 y.
2. "O'zbekiston Vatanim manim" Qo'shiqlar to'plami.1,2,3,4,-Toshkent. 1997-2001 y.
3. Mustaqillik taronalari (qo'shiqlar to'plami). G'.G'ulom. T.,2001 y.
- 4.M.Jalilov "Qo'shiqlar xrestomatsiyasi" Nizomiy nomli TPDU 2002 y.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz

5-amaliy mashg'ulot:

1.Kuylash yo'llari: legato, markato, non-legato va stakkato.

Reja

1.Xorda kuylash yo'llari

2 Legato, markato, non-legato, stakkato

Xor bo'lib kuylashda vokal san'atida kuylanganidek bir qator kuylash yo'nalishlari mavjud: **legato, markato, non-legato va stakkato.**

Legato - musiqa san'atida, vokal-xor ijrochiligida keng qo'llaniladigan asosiy shtrixdir. Unda ohang bir tekis, bog'lanib yangraydi.Kuylarni yzviy ravishda bog'lab kuylash legatoning asosiy formasi. Legato kuylashga erishish uchun xonanda frazalarni intonatsiyasi harakatlanishini sezishi kerak. Xonanda melodik ko'rinishni avval ongida hayolan tasavvurla tuzib, so'ng uni ijro etadi. Legatoda barcha uhli tovushlar bir-biri bilan undosh tovushlar orqali balandligi,

shakli o'zgargan holda ketma – ketligini buzmay maksimal artikulyatsiyada kuylanadi. Qator quyulib kelayotgan kuylarni bog'lab kuylash natijasida ovoz tembri jilosi o'ziga xos o'zgaradi.

Markato - legato nisbatan kamroq lekin ishlatiladigan shtrixlardan.

Non-legato - notalarni alohida-alohida, bog'lanmasdan kuylanadigan shtrixlardan. U legato va stakkatoning oralig'idagi uslub bo'lib unda tovushlarni juda bog'lab ham emas, lekin uzib ham emas balki alohida kuylanadi.

Stakkato - notalarni uzib-uzib, ta'kidlab ijro etiladigan shtrix. Stakkatoning eng muhim jihati tovushlar orasida tsezuralarning bo'lishi, ya'ni tovushlar bog'lanmasdan, uzib-uzib jaranglashga erishish talab etiladi. Bu ovoz yo'nalashida jaranglash qisqa bo'lab, bo'g'inlarda turtki aktsentlar nafas tayanchi bilan uriladi. Stakkato malakasini egallash chog'ida talabalarga o'g'ituvchi o'zi avval uni amalda kuylab ko'rsatishi maqsadga muvofiq.

2.“5.10 Marcato and Legato Diction

5.10.1 MARCATO AND LEGATO DICTION

There are two general types of diction, or styles of singing that a choral director will teach. These are marcato and legato diction. Marcato diction is sharply defined with explosive consonants, and often, accented vowels. It is a strong diction reserved for forceful, declamatory texts.

This diction would be appropriately used in instances such as that presented in figure 1. This is a good example of the power that may be obtained with marcato diction.

Not only are the consonants exaggerated but the vowels also receive a heavy accent. **Legato** diction, misapplied in this instance, would destroy the forceful nature of this opening statement.



Figure 5.8

In legato diction each note should be tied to the next with no space between them. This is somewhat difficult for young singers to do. They often allow the intensity to drop off in the tone toward the end of each note, creating a space between notes. Again, the principle of growth in the tone will help achieve a smooth, flowing line. The consonants | m | and | n | take on special significance in legato diction. They may be elongated somewhat, being sounded as a hum slightly before the consonant is articulated.

These sounds help carry a well-shaped tone through to the next vowel.

Many choral works, of course, combine marcato and legato diction. The director needs to determine which type of diction will be appropriate to each phrase and emphasize that fact to the choir. Figures 2 and 3 are examples of a work that incorporates both types of diction in an alternating manner.

It is also occasionally necessary to sing staccato, but this isn't as much a style of diction as it is a special type of light, quickly articulated diction that might be categorized at the very extreme end of marcato diction. When staccato diction is required it is usually for a special effect within a piece of music, dependent on the text and the composer's choice of text presentation."¹¹

¹¹ Choral Techniques By: Gordon Lamb c o n n e x i o n s Rice University, Houston, Texas < <http://cnx.org/content/col11191/1.1/> > 173-175

(For Nancy)

Hodie Christus Natus Est

SATB

Gordon Lamb

♩ = 76 Broadly

Soprano
Ho - di - e chris - tus na - tus est,

Alto
Ho - di - e chris - tus na - tus est,

Tenor
Ho - di - e chris - tus na - tus est,

Bass
Ho - di - e chris - tus na - tus est,

Ho - di - e chris - tus na - tus est,

Ho - di - e chris - tus na - tus est,

Ho - di - e chris - tus na - tus est,

Ho - di - e chris - tus na - tus est,

Copyright 1971, G. Schirmer, Inc., used with permission.

Figure 5.9

“5.10.Markato va legato ijrosida talaffuz.

Bu talaffuzdan foydalanishdan tavsiya etiladi.1- rasmdagi xolatta Markato talaffuzi juda o’rinli misol bo’la oladi. Urg’u nafaqat undosh tovushlarga , balki unli tovushlarga beriladi.

Legato talaffuzi bu holda juda noo'rindir, chunki asar tabiiy kuchni yo'qatadi. Legatoda har bir nota o'zaro mayin, yumshoq ketma-ketlikda ijro etiladi. Notalar orasida hech qanday bo'shliq bo'lmaydi. Yosh ijrochilar uchun bu murakkabdir.

Ular legatoning ijro jarayonida kuyning oxiriga etguncha bir to'n pasayishi, notalar orasida bo'shliqlar paydo bo'lish ehtimoli baland bo'ladi. To'nda turish uchun tekis kuylash maqsadga muvofiqdir. Legatoda m, n, p undoshlari alohida ahamiyatga ega. Ular bo'rttirib, cho'zib kuylansa kelayotgan unli tovush uyg'un ohagda yangrashiga yordam beradi.

Yuqorida aytilgandek, ko'pgina xor asarlarida asosan markato va legato talaffuzi qo'llaniladi.

Dirijyor talaffuzning qaysi turi qaysi musiqiy jumlagam mosligini aniqlab, xor ijrochilariga ko'rsatib beradi. 2- rasmda ikkala talaffuz ketma-ketligi ko'rsatilgan. Undan tashqari vaqti-vaqti bilan stakkatoda kuylash ham berilgan. Stakkato ham ijrochilikning turlaridan biri. Odatda bastakorlar asarlarining ta'sirini kuchaytirish uchun shunday tirlardan foydalanadi va ijrochilarga taqdim etadi."

Bu yuqorida aytib o'tilgan kuylash yo'llari a'kapella va jo'rli asarlar ijrosida muntazam ishlatiladi

Nazorat savollari

1. Legato shtrixi qanday kuylanadi?

2. Non legatoda qanday kuylanadi?

3. Stakkato qanday ijro etiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Sharafiyeva N. Xor sinfi. Musiqam nashriyoti. O'quv qo'llanma-T.: 2005.

2 Shomaxmudova B.V. Xor lug'ati. Toshkent. "Musiqam" 2009.

3 Romanovskiy N. Xorovoy slovar Izd. 3. Uchebnoe posobie-L.: Muzika. 1980.

4 Choral techniques By: Gordon Lamb Onlaine:

<<http://cnx.org/content/col11191/1.1/>>

Connexions Rice University, Houston, Texas

5 J. Shukurov "Dirijyorlik" "Istiqlol" T-2006

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. B.Umidjonov "Xor asarlari" G'.G'ulom. T.,1980 y.
2. "O'zbekiston Vatanim manim" Qo'shiqlar to'plami.1,2,3,4,-Toshkent. 1997-2001 y.
3. Mustaqillik taronalari (qo'shiqlar to'plami). G'.G'ulom. T.,2001 y.
- 4.M.Jalilov "Qo'shiqlar xrestomatsiyasi" Nizomiy nomli TPDU 2002 y.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz

6-AMALIY MASHG'ULOT

ASARLARDA MUSIQIY FRAZALARINI GARMONIK AKKORDLARI USTIDA ISHLASH.

Reja

1.Melodik yo'nalish

2. Garmonik akkordlar ijrosida soflik

1. **Melodik (gorizontal)** – xor partiyalaridagi soz, ya'ni intervallarning aniq intonatsiya qilinishi;
2. **Garmonik (vertikal)** - Umumiy xor sozi, bu akkordlarning aniq intonatsiya qilinishi.

Xor sozining tiniq va yaxshi bo'lishi xonandalarning musiqa tayyorgarligiga, ovoz apparatining holatiga, xorning qanday joylashganligiga, xona yoki sahnaning akustikasiga bog'liq bo'ladi. Xonandalar qo'shiq aytishda vokal- eshitish qobiliyat (intonatsiya) larine nazorat qilishlari va ovozning umumiy xorga nisbatan qanday eshitilayotganini kuzatib borishi, ladni sezishi zarur.

Xor sozining muhim omillaridan yana biri, **xonandalarni vokal tarbiyalashdir**. Qo'shiq aytish, solfedjio kabi mashg'ulotlar orqali xor a'zolarining vokal kuylash va garmonik eshitish qobiliyatlarini rivojlantiriladi. Xor sozlanishi sifati xonandalarning musiqa tayyorgarligi, ovoz apparati ansambllik holati, akustikasi va albatta xor rahbarining eshitish qobiliyatiga bog'liq. Xor kuylayotgan soz doiraviy (zonniy) deb ataladi. Bu uning u yoki bu tovushni kuylash sharoitiga qarab, uning balandligi ma'lum doira chegarasida pasayib yoki ko'tarilib, bir qancha o'zgarishi mumkin. Xor sozi toza intonatsiyaga bog'liq. Intonatsiya vas soz bir-birlari bilanuzviy bog'langan bo'ladi. Xorda toza intonatsiyasiz soz bo'lmaydi.

Intonatsiya (lotincha “intono” – qattiq talaffuz qilaman) – tovush balandligini ovozda aniq talaffuz qilish. U-1) Badiiy obrazning musiqa tovushlari orqali ifoda etish; 2) Unga katta bo'lmagan, nisbatan mustaqil kuychan ibora; 3) Musiqa ijrosida tovush balandligini aniq ifoda etish; 4) Musiqa asboblarning tovush qatoridagi tonlarni balandlik va tembr jihatidan aniq aks ettiradi.

2. Asarlarda musiqiy frazalarni intonatsion sof kuylash ustida ishlash.

“Yor-yor” O. Abdullayeva musiqasi, H. Rizo she'ri.

Ushbu asar aralash xor uchun Oydin Abdullayeva tomonidan Hamroqul Rizo she'riga bastalangan.

Asar “lapar” janriga yaqin yozilgan bo'lib, uni talabalar tomonidan ijro etilishini bir muncha yengillashtiradi. Xalq musiqiy janrlariga yaqin yozilgan asarlar, jumladan a kapellalarni kuylash, talabalarga shu janrni tushunib, his etib kuylashlariga yaqindan yordam beradi.

Asar *a capella* janrida bo'lib, aralash xor uchun yozilgan. Bunda: Soprano, Alt, Tenor va Bas ovoz guruhlari hamda Soprano solo ijro etishadi.

Asar murakkab 3 qismli shaklda yozilgan: A+B+A₁.

Kirish qismi – 16 takt ayollar ovozi guruhi bilan boshlanadi.

1 – qism – 32 taktdan iborat bo'lib, o'z ichiga 1-3 tsifralarni olgan.

2 – qism – bunda Soprano ovozli yakkaxonandaga ayollar ovoz guruhi jo'rlik qiladi (12 takt).

The musical score is written for Soprano, Alto, and Piano. The key signature is one sharp (F#) and the time signature is 8/8. The Soprano part begins with a *mp* dynamic and the lyrics "Deh-qon yi-git ish bi-lan ko'ng lim ol-gan yor - yor... Keng da - la - da". The Alto part begins with a *p* dynamic and the lyrics "yor yor yor". The Piano part begins with a *p* dynamic and the lyrics "u me-ni se vib _ qol-gan". The score is divided into two systems. The first system contains measures 1 through 5. The second system begins with a measure number '6' and contains measures 6 through 10. The Soprano part has a melodic line with some grace notes. The Alto part has a more rhythmic line. The Piano part has a bass line with some grace notes. The lyrics are written below the corresponding staves.

Asarning avj qismida butun xor ovozlari *f* ga kuylaydi. 5 – tsifradan tenor ovoz guruhlariga ayollar ovoz guruhi jo'rlik qiladi.

Asarning yozuv uslubi asosan gomofon-garmonik bo'lib, avj qismning davomida polifonik yo'lining imitatsiya elementlari har bir ovoz guruhida qo'llanilgan. Masalan:

SOPRANO

yor ku-lib ayt sin yor - yor yor

ALTO

yor yor yor yor

TENOR

ku-lib ayt sin yor yor ham il-hom - ga ham zavq - qa

9

yor to' lib ayt - sin, yor yor yor to' lib ayt-

yor yor ku lib ayt - sin yor yor yor

to' lib ayt sin yor - yor ku lib ayt - sin yor - yor

18

mf sin, yor - yor *mf* ku - lib ayt - sin, to' - lib ayt -

yor *mf* yor ku - lib ayt - sin,

to' - lib ayt - sin yor_ *mf* ku - lib ayt - sin, to' - lib ayt -

Yor ku - lib ayt - sin,

24

f sin, to' - lib ayt - sin, yor *f* yor

to' - lib ayt - sin yor *f* yor

sin, to' - lib ayt - sin, yor *f* yor

to' - lib ayt - sin yor yor

Asar re major tonalligida yozilgan, unda hech qanday modulatsiya va og'ishmalar uchramaydi.

Ovoz yo'nalishi ijro uchun juda qulay bo'lib, asarning badiiyligini yanada tabiiy yangrashiga imkon yaratadi. Asarning o'lchovi – **6/8**. Ushbu o'lchov Bu o'lchov “Yor-yor”larning xarakteriga mos bo'lib, “Ufor” raqs usuli hisoblanadi. 6/8–murakkab o'lchovlardan hisoblanib, vaqti-vaqti bilan kompozitor uning ritmik ko'rinishini o'zgartirib turadi. Masalan, asarning boshida bunday ritmik ko'rinish qo'llanilsa:

SOPRANO
Yor - yor - yor - yor - ey.

ALTO
Yor - yor - yor - yor - ey.

Asarning 2 – tsifrasida esa deyarli bir-biriga zid bo'lgan ritmik uslub qo'llaniladi. Bu ham ritmik, ham ansambl ijrosida qiyinchiliklar tug'diradi. Bunda Soprano va Alt ovoz guruhlarida ritmik surat “triol” bo'lib ketgan bo'lsa, Tenor va Bass ovoz guruhlarida bir tekis yangraydi. Keyingi taktda esa aksincha erkak ovoz guruhlarida “triol”, ayol ovoz guruhlarida bir tekis kuylanadi.

SOPRANO
yor - yor - yor yor ey yor - yor yor ey

ALTO
yor - yor - yor yor ey, yor - yor yor ey

TENOR
yor - yor yor - yor - yor yor - yor yor - yor - yor

BASS
yor - yor yor - yor - yor yor - yor yor - yor - yor

Asar tempi – Allegro moderato – o'rta tezlikda. Asarda hech qanday agogika qo'llanilmagan. Dinamik belgilardan –*cresc.*, *p*, *mp*, *mf* va *f* uchraydi.

Xorning muvaffaqiyatli faoliyati uchun xorda vokal ishlari juda zarur tamoyillardan biridir. Vokal ishlarining maqsadi talabalarga to'g'ri kuylash malakalarini o'rgatish va o'stitirishdir. Masalan, nafasli tovush hosil qilish, sof intonatsiyaga erishish, umumiy ansambl va xor sozini saqlash, aniq diktsiya,

nyuansirovka ustida ishlash, talabalarning kuylashidagi nuqsonlarni bartaraf etish, to'g'ri ovoz hosil qilish, tovush yo'nalishi malakalarini o'rnatish kabi ishlarni o'z ichiga oladi. Vokal ishlari xorda muntazam va muttasil olib boriladi.

Asarda xor ovozlarning umumiy diapozoni:



Tovush yo'nalishining xarakteri o'ynoqi, sho'x – shodon. Tovush atakasi qattiq bo'lishi talab etiladi.

Alt guruhining musiqiy yo'nalishida xromatik yarim notalar uchraydi. Undan tashqari *glissandoni* oktava oralig'ida xromatik yo'nalishiga hamda ularning intonatsion aniq ijrosi uchun dirijor va kuylovchilar nihoyatda e'tiborli bo'lishlari kerak.



Nazorat savollari

- 1.Melodik yo'nalish nima degani?**
- 2.Intonatsiya so'zini izohlab bering?**
- 3.Xor sozi nimaga bog'liq?**
- 4.Garmonik sozga qanday erishiladi?**

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sharafiyeva N. Xor sinfi. Musiqqa nashriyoti. O'quv qo'llanma-T.: 2005.
- 2.Shomaxmudova B.V. Xor lug'ati. Toshkent. "Musiqqa" 2009.
- 3.Romanovskiy N. Xorovoy slovar Izd.3. Uchebnoe posobie-L.:Muzika. 1980.
- 4.Choral techniques By: Gordon Lamb Onlaine:
<<http://cnx.org/content/col11191/1.1/>>
Connexions Rice University,Houston,Texas
- 5.J.Shukurov "Dirijyorlik" "Istiqlol"T-2006

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. B.Umidjonov "Xor asarlari" G'.G'ulom. T.,1980 y.
2. "O'zbekiston Vatanim manim" Qo'shiqlar to'plami.1,2,3,4,-Toshkent. 1997-2001 y.
3. Mustaqillik taronalari (qo'shiqlar to'plami). G'.G'ulom. T.,2001 y.
- 4.M.Jalilov "Qo'shiqlar xrestomatsiyasi" Nizomiy nomli TPDU 2002 y.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.ziynet.uz
2. www.edu.uz

7- AMALIY MASHG'ULOT

UMUMIY XOR ANSAMBLI: RITMIK,DINAMIK, INTONATSIYA USTIDA ISHLASH

Reja

1.Umumiy xor ansambli haqida

2.Ritmik,dinamik ansambllar va intonatsiya ustida ishlash

1-Guruhlar va umumiy xor ansambli - Ansambl xorning asosiy elementlaridan biri bo'lib, Tovushlar sadosidagi birlik, aniq temp va ritmda ovozlarning tembriga ko'ra hamohangligi, xor va jo'r, solist va xor ovozinig uyg'unlashuvi natijasidir.

Xor ansambli musiqa ansambllarining eng keng va qiyin turlariga kiradi va o'z ichiga ko'p sonly ijrochilarni oladi. Ansambl so'zi (fransuzcha "ensemble") – birga ya'ni hamohanglik demakdir. Ansambl turli hil bo'ladi, xor san'atida – xor sadolanishining ifoda vositalaridan biri. Xor ijrosidagi ansambllar ikki ko'rinishda bo'ladi: 1) guruhlar ansambli- ma'lum xor partiyalarining qo'shilib uyg'unlikda kuylashi; 2) Umumiy ansambl – xordagi ansambllarning qo'shilishi, ya'ni partiyalarning hamohang sadosi;

Xor san'atida ansambl - xor partiyalarining , butun xorning birgalikdagi muvozanatli sadolanishidir. Bu demak, har bir xonanda faqat o'z partiyasigina emas, balki butun xorni eshita bilishi va o'z ovozinig umumiy sadoga qo'sha bilishi kerak. Xor partiyalarida biror xonandaning ovozi o'ziga mansub guruga qo'shilmasa, shu partiyada ansambl bo'lmaydi. Guruhlardagi ansambl buzilgach bu hol umumiy ansamblga ham ta'siq qiladi va natijada umumiy ansambl hosil bo'lmaydi. Xorda to'liq ansambl barpo etish juda ko'p faktorlarni o'z ichiga oladi.

Ular:

- intonatsiya ansambli;
- tembr ansambli;
- soz ansambli;
- dinamika ansambli;
- diktsiya-orfoepik ansambl;
- agogik ansambl ;
- tessitur ansambli;
- faktura yozuvi ansambli;

Qayd etilgan ansambl elementlaridan birortasi buzilsa, umumiy xor ansambli ham buziladi.

2.Ritmik va dinamik ansambllar.

Xor ijrochiligida badiiy ansambl turli ayrim ansambllardan tashkil topadi:

- 1) Dinamik ansambl – sadolanish kuchiga ko‘ra ovozlarning qo‘llanishi;
- 2) Ritmik ansambl – ijroning ritmik birligi ;
- 3) Tembr ansambl – ovozlarning tembriga ko‘ra qo‘shilishi;
- 4) Sur‘at ansambli – ijroning sur‘at birligi;
- 5) Garmonik ansambl - ovozlarning akkord, hamohanglikdagi muvozanatli sadosi;
- 6) Diksiyali ansambl – adabiy matnni kelishib talaffuz etish;
- 7) Intonatsiyali ansambl – tovush balandligini aniq sadolantirish.

Ko‘rsatilgan ansambllardan birining buzilishi umuman xor sadolanishi ansamblining buzilishiga olib keladi. Yagona badiiy-ijrochilik ansambliga erishish, xormeystning eng qiyin vazifalaridan biridir. Vokal-texnik usullar va malakaning bir tipda bo‘lishi, barcha asar tarkibi ijrosining birligi, asar mazmuni va g‘oyaviy niyatini ochish haqiqiy badiiy ijrochilik ansamblini yaratishning muhim shartlaridan.

3. Tabiiy va sun‘iy ansambl. Ovoz partiyalari teng tessitur sharoitda bo‘lib, bir xil registrlardan foydalanilsa, hamohanglik tabiiy bo‘ladi. Bu **tabiiy ansambl** deyiladi. Partiturada ovoz partiyalari bir xil tessitur balandlikda (registrda) yozilib, ularga bir xil tovush dinamikasi (“f”, “p” yoki “mf” l. k.) – berilgan bo‘lsa, har bir ovoz partiyasi, shuningdek, butun xor tabiiy sharoitda sado beradi. Bu sado hamohang, juda uyg‘unlashgan bo‘ladi.

Sun‘iy ansambl – Ba‘zi xor asarlarida muzika sifatlari yetarli darajada bo‘lmaydi. Bunday asarlarni xor bilan ijro qilishda dirijyor sun‘iy ravishda partiyalar sadosini uyg‘unlashtiradi, ya‘ni dinamik jihatdan tenglashtiradi. Bu sun‘iy ansambl deyiladi.

Agar asarda partiyalaridagi ba‘zi epizod, fraza yoki akkordlar har xil registrlarda yozilgan bo‘lsa, (bir partiya yuqori registrda, ikkinchisi pastda) ovoz kuchi bir xil jaranglamaydi. Xorda umumiy ansambl buziladi. Bunday holda dirijyor ovozlarning dinamikasini (kuchini) sun‘iy tenglashtiradi. Ba‘zan hamma partiyalar bir xil tessitura sharoitda bo‘lib, faqat bitta partiyada pastki registr notalari berilgan va umumiy xorga “**mf**” qo‘yilgan. Dirijyor uch partiyada “**mf**” qoldirib, to‘rtinchi partiyaga “**f**” qo‘yib, uni kuchaytiradi va umumiy ovoz tengligiga erishadi. Sun‘iy ravishda hamohanglik barpo qiladi. Xor adabiyotida xor partiyalarining bir-birlaridan baland yoki past tessitura sharoitida yozilgan xor fakturalari mavjud. Masalan, aralash xor uchun yozilgan partituralarda tenor partiyasi altga ko‘ra, alt sopranoga ko‘ra balandda yoki tenor basdan, alt tenordan, soprano altdan pastda (ovozlarning kesishish hollari) bo‘lsa, bunga ikki tomonlama qarash va ansambl turini aniqlash kerak.

Xor sadolanishida tessitura masalasi katta ahamiyatga ega. Tessitura sharoitiga qarab ansamblning tabiiy yoki sun'iylikini payqash mumkin. Tessitura sharoiti taxminan bir xil bo'lsa, ya'ni barcha xor qatnashchilari zo'r bermasdan past yoki yuqori kuylasa, yoxud barcha ovozlari o'rta registrlarda bo'lsa, tabiiy ansambl ortiqcha harakatsiz hosil bo'ladi. Sun'iy ansambl ovozlari har xil tessitura sharoitida bo'lganda qo'llanadi. U vaqtda sadolanishni meyoriga yetkazish uchun ovoz kuchi sun'iy bo'rttiriladi yoki aksincha susaytiriladi

Ovoz mashqlari


1 – mashq- Yumiqlik yoki unli tovushlarda quyidagi mashqni kuylash maqsadga muvofiq. Unda tovushlar yig'iq holda shakllanib qattiq tanglay tomon yo'naltiriladi. Bu mashqda kuylovchilarning bir ovozda birga ansamblida tiniqlik sozda kuylashlari talab etiladi.



2– mashq- quyidagi mashqni – ba, -da, - ma bo‘g‘inlarida kuylabhar bir notalarni aniq ta’kidlab ijro etish talab etiladi. Bu mashq ham yarim tonlar bilan yuqoriga hamda pastga ijro etiladi.



3 – mashq- ovozni pozitsion yuqori va unisonda sof kuylashga erishish(asosiy tonlardan transpozitsiyada kuylash) maqsadida har bir asosiy major uch tovushligining hamohang tininq ijrosiga erishish kerak. Bu mashqni fermatoda ijro etishdan maqsad har bir ovoz partiyalarining unison va ansambliga erishish.



4– mashq - Bu mashqni unli va notalar nomlari bilan ijro etish hamda fortedan pianoga qarab diminuendoni bajarish uchun kuylash ko‘zda tutilgan. Unda

intervallarning katta va kichik oraliqlarini sezish va sof kuylash maqsadga muvofiq.



Nazorat savollari

- 1.Umumiy xor ansambli deganda nimani tushunasiz?**
- 2.Ritmik ansamblga qanday erishiladi?**
- 3.Dinamik ansambl –nima degani?**
- 4.Tabiiy ansambl qanday bo'ladi?**
- 5.Sun'iy ansamblga qanday erishiladi?**

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sharafiyeva N. Xor sinfi. Musiqa nashriyoti. O'quv qo'llanma-T.: 2005.
- 2.Shomaxmudova B.V. Xor lug'ati. Toshkent. "Musiqa" 2009.
- 3.Romanovskiy N. Xorovoy slovar Izd.3. Uchebnoe posobie-L.:Muzika. 1980.
- 4.Choral techniques By: Gordon Lamb Onlaine:
<<http://cnx.org/content/col11191/1.1/>>
Connexions Rice University,Houston,Texas
- 5.J.Shukurov "Dirijyorlik" "Istiqlol"T-2006

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. B.Umidjonov "Xor asarlari" G'.G'ulom. T.,1980 y.
2. "O'zbekiston Vatanim manim" Qo'shiqlar to'plami.1,2,3,4,-Toshkent. 1997-2001 y.
3. Mustaqillik taronalari (qo'shiqlar to'plami). G'.G'ulom. T.,2001 y.
- 4.M.Jalilov "Qo'shiqlar xrestomatsiyasi" Nizomiy nomli TPDU 2002 y.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.ziynet.uz
2. www.edu.uz

8-AMALIY MASHG'ULOT

ASARLARDA TALAFFUZ USTIDA ISHLASH

Reja

1.Talaffuz haqida

2.Talaffuz ustida ishlash

Xorda talaffuz. Xor san'ati – musiqa va adabiy poetik bjodiyotni organik birlashtiruvchi san'atidir.Asardagi adabiy tekst so'zlarini tinglovchilarga etkazib berish vositasi diktsiya deyiladi. Diktsiya asarning g'oyaviy mazmunini ochib berishda muhim rol o'ynaydi.Agar so'zlar poetik fikrni aniqlashtirsa, musiqa ularni emotsional bo'yoqlar bilan to'ldiradi, chuqurlashtiradi. Xor ijrochiligida xonandalardan to'g'ri diksiya (lotincha diction –nutq talaffuzi), ya'ni adabiy tekstni aniq va ravshan talaffuz qilish talab qilinadi. Tovush o'rning to'g'riligi va nafas aktivligi diksiyaga bog'liq. Tantanavor, qaxramonlik, dramatik xarakterdagi asarlar undosh tovushlarni ta'kidlab, aniq talaffuz etishni talab qilsa, lirik xarakterdagilariga esa mayin talaffuz mos. Vokal nutqi ifodali va “jonli” bo'lishi kerak. Agar unli tovushlar xonanda ovozi sadosi cho'ziqligini, kuchi va rang- barangligini ta'minlasa, undosh tovushlar esa asarning badiiy matnini mazmunini tushunarli va emotsional qilib ifodalashga imkon beradi.Vokal –xor musiqasida so'z va musiqa bibirini to'ldiradi va badiiy obraz yaratadi. Diktsiya aniq so'z talaffuzi ekan, u ijrodagi badiiy ifoda hamdir.

Lotin va ingliz tili talaffuzi.

“ 5. CHORAL DICTION: ENGLISH AND LATIN

| bv |. The first sound is | | as in "uh". The second vowel sound is also "uh" but is stressed and thus is marked | |. The schwa is probably the least understood and most mispronounced vowel sound in choral singing. When speakers, solo singers, or choirs mispronounce and stress unstressed syllables, the result is a stilted, meaningless succession of vowel sounds, much the same as the child who is asked to read an unfamiliar passage in front of the class. Some conductors, for example, substitute an "ah" vowel for the unstressed first syllable in "above" because "it sounds better." This is an absurd practice and it should not occur. A campaign needs to be mounted to save the schwa. It is a very important part of the pronunciation of our language, and its importance must remain unstressed! Other words containing the schwa are listed below. The syllable to be represented by the schwa is in bold letters. The error most often made is to pronounce these unstressed syllables as they are spelled, as in the example of the word "above."

Another example is the more commonly mispronounced word, heaven. It is often incorrectly sung as heven instead of the correct pronunciation hevan. It is interesting that the same choirs (or solo singers) who mispronounce heaven will not mispronounce the second syllable of kingdom. Neither is the second syllable of Christmas often mispronounced as—mass. There is, unfortunately, little consistency regarding unstressed syllables by many choirs. This is an aspect of diction that is equally as important as every other aspect. The beauty of the deep "ah" vowel is of little value if every syllable receives the same stress and some are also mispronounced. heaven woodland around endeth taken Christmas excellent moment again kingdom sadness petal”
Table 5.1”

“5.11. Lotin va ingliz asarlari ijrosida talaffyz.

Xor ijrochiligida bir qator turli tillarda yozilgan asarlar ijrosi talaffuzida juda ko'p muammolar mavjud bo'ladi. Asosan ingliz tilidagi asarlar ijrosida S tovushuni ba'zi xor ishtirokchilari talaffuzida shivillab, ba'zilar esa hushtak chalgandek eshitiladi. Bularning oldini olish maqsadida har bir xor artistlari bilan bir qator talaffuz mashqlarini olib boorish zarur. Ana shunday harflardan biri D (the) harfi bo'lib, uni ham talaffuzida yuqorida aytib o'tilgan muammolar bor. Xor asarlarini turli davrda yaratilganligiga qarab harflar talaffuzi o'zgaradi. Shunday harflardan yana biri R va G undosh harflaridir. Ushbu undosh tovushlarning jarangi va talaffuzi tugallayotganda o'ziga xos aniqlik bilan kuylansa, unli tovushlarning ketidan kelganda esa bog'lanib keladi kuylanishi talab etiladi. Shunday muammoli harflardan yana biri M (em) harfidir. Uning ham ijrosi yuqorida qayd etilgan undosh tovushlar bilan o'xshashdir. Anashu barcha muammoli harflarni jamoa bilan birga bir qator talaffuz mashqlari bilan ishlab, ansambl maromiga yetkazish zarur. Albatta buning ijrosi dirijyor yoki xormeystrga katta mas'uliyat qo'yadi. Harflarning noto'g'ri talaffuzi asarda keltirilgan matnni ma'nosini o'zgartirib yuborishi mumkin. Shu maqsadda asarni qaysi davrga mansubligi, kompozitor ijodidan kelib chiqqan holatda o'zi o'rganib chiqishi, so'ngra xor jamoasiga o'rgatishi lozim

Xor bilan romantik kompozitor R.Shumanning “Ave Maria” jo'rli asarini guruhlariga o'rgatish. O'rganilayotgan asarni jamoaga fortepianoda ijro etib eshittirish, yoki boshqa jamoa ijro etgan namunali video disklardan qo'yib tinglash. Asarni melodik frazalarini guruhlar bilan ishlashda intonatsion tiniqlikka, asarni kichik-kichik jumllarini qizlar yoki yigitlar guruhlar bilan qo'shib kuylatganda intervallar va akkordlarni sof ijrosi ustida ishlash. Musiqiy jumllarni kuylash jarayonida ko'proq ishlatiladigan zanjir nafasning to'g'ri

qo'llab kuylanishiga e'tibor berish. Xor partiturasini tsifralarga ajratib, o'rganilgan qismlarini fortepiano bilan qo'shib ishlash.

Nazorat savollari

1.Talaffuz nimani anglatadi?

2.Xorda talaffuz ustida qanday ishlar olib boriladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 21.Sharafiyeva N. Xor sinfi. Musiqa nashriyoti. O'quv qo'llanma-T.: 2005.
- 22.Shomaxmudova B.V. Xor lug'ati. Toshkent. "Musiqa" 2009.
- 23.Romanovskiy N. Xorovoy slovar Izd.3. Uchebnoe posobie-L.:Muzika. 1980.
- 24.Choral techniques By: Gordon Lamb Onlaine:
<<http://cnx.org/content/col11191/1.1/>>
Connexions Rice University,Houston,Texas
- 25.J.Shukurov "Dirijyorlik" "Istiqlol"T-2006

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. B.Umidjonov "Xor asarlari" G'.G'ulom. T.,1980 y.
2. "O'zbekiston Vatanim manim" Qo'shiqlar to'plami.1,2,3,4,-Toshkent. 1997-2001 y.
3. Mustaqillik taronalari (qo'shiqlar to'plami). G'.G'ulom. T.,2001 y.
- 4.M.Jalilov "Qo'shiqlar xrestomatsiyasi" Nizomiy nomli TPDU 2002 y.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz

9-AMALIY MASHG'ULOT

DINAMIK NYUANSLAR.

Reja

1.Dinamika haqida

2.Turli dinamik nyuanslar

Dinamika grekcha “dinamik” (dynamic) –kuch demakdir.

Musiqada dinamika tovush kuchini bildiradi.Tovushning dinamik belgisi nyuans (frantsuzcha “nyuantse”-tus) deb ham yuritiladi. Muzika asarini dinamik tuslarsiz tugatish, to'laqonli asar deb bo'lmaydi.

Ba'zida nyuanslar bilan dinamik tuslarni ajratishadi. Lekin bu ikkala tushuncha bir-birini to'ldiradi va bir ma'noda ishlatiladi. Demak, nyuanslar- tovushning dinamik tuslaridir.Mana shu tovush kuchining asarning boshidan to oxirigacha taqsimlanishi uning dinamikasi deyiladi.

Asar mazmuniga qarab tovush kuchi ma'lum joylarda o'zgarishi mumkin. Dirijyor –interpretator asarni xorga o'rgatish jarayonida dinamik tuslarni, muzika tilini, tabiiy logik urg'ularni o'zlashtirgan holda har bir muzikaviy jumla va davrdagi fikrni xonandalarga o'rgata bilishi lozim.

Nyuanslar ham badiiy ifoda vositasi hisoblanadi. Asarning badiiy-g'oyaviy mazmunini ochishda badiiy ifoda vositalari (ifodali ijro, jumlash, asarning asosiy ohangi-kuyining ravonligiga erishish) katta rol o'ynaydi.

Xorning ijrosidagi badiiylikka erishishida dinamik tuslarning ahamiyati cheksiz. Kompozitor tomonidan qo'yilgan dinamik belgilarni aniq bajarish, ya'ni uni tushina bilibgina qolmay, xorga (har bir partiyaga) o'rgata bilish kerak. Ma'lumki, har bir katta va kichik muzika jumlasini boshlanish, o'rta (avj) va oxirgi qismlarga bo'linadi. Xor rahbari shuni nazarda tutib, jumlalarining mantiqiy nuq tasini topishi va ijro qilishi (agar avtor tomonidan qo'yilmagan bo'lsa ham) lozim.Xorda to'g'ri fortissimo (“ff”) nyuansiga erishish birmuncha qiyinchilik tug'diradi. Chunki ovoz kuchi qattiq bo'lganda eshitish organlariga salbiy ta'sir qilishi sir emas. Qattiq ijroda ansamblga, yaxshi sozga erishish qiyin.

Asarning xarakteriga qarab forte ham “qattiq”, ham “yumshoq”, to'liq jarangdor qilib ijro etilishi mumkin.

Xorda piano ijrosiga og‘ir, bosiq tovushda og‘izda yumib va ochib, bir ovozda (I oktavada) mashq qilib erishish mumkin. Piano pastki registrda yumshoqroq, o‘rta registrda ravon va yuqori registrda yengil, mayin bo‘lib eshitiladi. Umuman, xorda fortissimo va pianissimo ovoz kuchlariga erishish qiyin hisoblanadi. Xorda har qanday dinamik tusni barpo qilish uchun ko‘p mashq olib borish talab qilinadi.

Masalan, A.Yegorov “Dinamik tuslar ustida ishlaganda avvalo oktava-unison mashqlqridan boshlab, sekin asta garmonik tuzimlarga o‘tish maqsadga muvofiqdir” deydi va misollar tavsiya qiladi.

Quyidagi misollardan **keshchendo, diminuendo, forte, piano, sforsando, aksent, pianissimo va fortissimo** kabi dinamik tuslar ustida ishlash uchun foydalanish mumkin.

Shuningdek, mashqlar har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, kreshchendo va diminuendoga bir tekis erishish uchun ma‘lum bir notani yoki akkordni (o‘rta registrda) yaxshi zanjiriy nafasda (ikki, uch yoki to‘rt takt davomida) kreshchendo va diminuendo dinamik tuslarini hosil qilish mumkin.

Yoki ayollar xorida kreshchendo, erkaklar xorida diminuendo qilish (yoki aksincha) mumkin.

Aksincha, oldin diminuendo, keyin kreshchendo kabi dinamik tuslarni hosil qilish ancha murakkab bo‘lib, xor kollektividan tegishli texnik malaka talab qiladi.

Shuningdek, **sforsando, subito piano, aksent** kabi dinamik belgilar ustida alohida yoki asarlardan epizodlar olib ishlash va malaka hosil qilish mumkin. Ayrim vaqtlarda bir asarning o‘zida uning harakteriga qarab ikki o‘zgarib turuvchi yoki qarama-qarshi (kontras) dinamik tuslar qo‘llaniladi.

Kuplet formasidagi asarlarda nyuanslar har xil ko‘rinishda qo‘llaniladi. Masalan, qo‘shiqning bir bandi **m,F,S** da kuylansa, boshqa bandida piano qo‘llanilishi mumkin. Bu usul kompozitor tomonidan qo‘llanilishi yoki dirijyorning interpretatsiyasi bo‘lishi mumkin. Buni qilishdan maqsad, asarni bir xil nyuansda emas, balki har xil qilib ijro qilishdir. Har bir bandning dinamikasi uning so‘z mazmuniga qarab aniqlanadi.

Shunday qilib, xor kollektivida jumlash qobiliyatini va har qanday dinamik tuslardan to‘g‘ri foydalanish malakalarini o‘stirish ifodali ijroga zamin yaratadi.

Xor bilan romantik kompozitor R.Shumanning “Ave Maria” jo‘rli asarini guruhlariga o‘rgatish. O‘rganilayotgan asarni jamoaga fortepianoda ijro etib eshittirish, yoki boshqa jamoa ijro etgan namunali video disklardan qo‘yib

tinglash. Asarni melodik frazalarini guruhlar bilan ishlashda intonatsion tiniqlikka, asarni kichik-kichik jumllarini qizlar yoki yigitlar guruhlar bilan qo'shib kuylatganda intervallar va akkordlarni sof ijrosi ustida ishlash. Musiqiy jumllarni kuylash jarayonida ko'proq ishlatiladigan zanjir nafasning to'g'ri qo'llab kuylanishiga e'tibor berish. Xor partiturasini tsifralarga ajratib, o'rganilgan qismlarini fortepiano bilan qo'shib ishlash.

Nazorat savollari

- 1.Qanday dinamik nyuanslarni bilasiz?**
- 2.Dinamik nyuanslar nima uchun qo'llaniladi?**
- 3.Aktsent nima?**
- 4.Subito forte va subito piano nimani bildiradi?**

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sharafiyeva N. Xor sinfi. Musiqa nashriyoti. O'quv qo'llanma-T.: 2005.
- 2.Shomaxmudova B.V. Xor lug'ati. Toshkent. "Musiqa" 2009.
- 3.Romanovskiy N. Xorovoy slovar Izd.3. Uchebnoe posobie-L.:Muzika. 1980.
- 4.Choral techniques By: Gordon Lamb Onlaine:
<<http://cnx.org/content/col11191/1.1/>>
Connexions Rice University,Houston,Texas
- 5.J.Shukurov "Dirijyorlik" "Istiqlol"T-2006

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. B.Umidjonov "Xor asarlari" G'.G'ulom. T.,1980 y.
2. "O'zbekiston Vatanim manim" Qo'shiqlar to'plami.1,2,3,4,-Toshkent. 1997-2001 y.
3. Mustaqillik taronalari (qo'shiqlar to'plami). G'.G'ulom. T.,2001 y.
- 4.M.Jalilov "Qo'shiqlar xrestomatsiyasi" Nizomiy nomli TPDU 2002 y.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz

10-AMALIY MASHG'ULOT

ASARLARNING BADIY-MUSIQIY OBRAZLAR USTIDA ISHLASH VA KONSERT CHIQISHLARI UCHUN TAYYORGARLIK

Reja

1.Asarlarda badiiy-musiqiy obrazlar ustida ishlash

2. Konsert chiqishlari uchun tayyorgarlik

“Asar ijrosida musiqiy- badiiylikka erishish uchun uning jumllarini his qilish va dinamik tuslarini aniq bajarish lozim. Dirijyor xonandalarni har bir musiqiy jumla va gapni dinamik tuslar yordamida ifodali ijro qilishga o'rgatadi. Har qanday yaxshi o'zlashtirilgan asar o'z xarakteriga monand sur'atda ijro qilinmasa u eshituvchilarni qiziqitirmaydi. Dinamik tuslarning aniq bajarilishi hamda adabiy matn so'zlarining ifodali va aniq talaffuzi ijroning ta'sirchanligini oshiradi.

Dirijyor asarni texnik tomonidan o'zlashtirib bo'lgach xorga asarni o'rgatish jarayoni va konsert ijrosida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar: takt hissalarini bo'linish hollari, ayrim zarblar, auftaktlar, fermato, xor ovozlari guruhlariga ko'rsatiladigan ayrim qiyin dirijyorlik ishoralari, uzishlar va boshqalar texnik tomonidan puxta va aniq bajarilishiga erishiladi. Ijrochilik tahlili davomida dirijyorda (musiqiy didi va tafakkuri tufayli) asarning badiiy obrazini yaratish haqida fikrlar tug'ila boradi. Umuman, dirijyorning asarni musiqaviy jumlalarga to'g'ri bo'la olish va uning aniq ijro sur'atini topa olish muhim ahamiyatga ega. Dirijyor repetitsiya jarayonlarida **kamertondan** asar sozini berish uchun ko'plab shug'ullanishi kerak.

Yuqorida qayd etilgan ishlar bajarilgach, asarning badiiy obrazlarini va asl mohiyatini idrok qilgan holda uni meyoriga yetkazib ijro qilish, ya'ni sayqallash ishlari boshlanadi. Asar ijro qilingan sari ovozlari uyg'unlashib, asarga sayqal berish davrida asardagi badiiy obrazlar xonandalar ongiga singa boradi.Ko'p

ovozli musiqani muntazam eshitish va kuylash undagi go'zallikni anglash va idrok etish imkonini beradi.”

Xor asarlarini badiiy va musiqaviy mazmunini ochish uchun uning to'g'ri ijro tempini topa olish dirijyordan alohida e'tibor talab etadi. Asarlar kompozitor tafakkuriga binoan ma'lum templarda ijro qilinmasa, ularning asl ma'nosi tinglovchilarga tushunarli bo'lmaydi. Asardagi dinamik tuslarning aniq bajarilishi, poetic tekstning emotsional va aniq talaffuzi uning ta'sirchanligini oshiradi. Asarlar vokal-texnik, badiiy tomondan mukammal o'rganilib sayqal berilgach, yakuniy mashg'ulotlarda barcha asarlarni takrorlash zarur.

Xor sinfi musiqiy repertuarining badiiy-musiqiy ifodali ijrosi quyidagilarni talab etadi:

- barcha musiqiy asarlarlarni intonatsion tiniq kuylanishi;
- asarlar ijrosining musiqiy obraz dramaturdiasiga mosligi;
- barcha musiqiy asarlarlarni yoddan bilish;
- asarlarni muallif ko'rsatgan tempiga rioya holda kuylanishi;
- Ovoz partiyalari birgalikdagi ijrosida uyg'unlikka erishish;
- Dirijyor jestlariga to'liq javob berish;
- jo'rnavoz bilan ansamblda kuylash;
- repititsiya jarayonida faollik.

Nazorat savollari

1.Asarlar badiiy-musiqiy obrazlari deganda nimani tushunasiz?

2.Xor jamoasi dirijo'ri va ishtirokchilari kontsert chiqishlari uchun qanday tayyorgarlik ko'rishi kerak?

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sharafiyeva N. Xor sinfi. Musiqi nashriyoti. O'quv qo'llanma-T.: 2005.
- 2.Shomaxmudova B.V. Xor lug'ati. Toshkent. "Musiqi" 2009.

3.Romanovskiy N. Xorovoy slovar Izd.3. Uchebnoe posobie-L.:Muzika. 1980.

4.Choral techniques By: Gordon Lamb Onlaine:

<<http://cnx.org/content/col11191/1.1/>>

Connexions Rice University,Houston,Texas

5.J.Shukurov “Dirijyorlik” “Istiqlol”T-2006

Qo’shimcha adabiyotlar:

1. B.Umidjonov “Xor asarlari” G‘.G‘ulom. T.,1980 y.

2. “O‘zbekiston Vatanim manim” Qo‘shiqlar to‘plami.1,2,3,4,-Toshkent. 1997-2001 y.

3. Mustaqillik taronalari (qo‘shiqlar to‘plami). G‘.G‘ulom. T.,2001 y.

4.M.Jalilov “Qo‘shiqlar xrestomatsiyasi” Nizomiy nomli TPDU 2002 y.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.ziynet.uz

2. www.edu.uz

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Koʻzga koʻringan xormeysterlar faoliyati haqida
2. Xor jamoasi va uning repertuarlari haqida
3. Oʻzbekistonda har yili oʻtkazib kelinayotgan “Xor festivali” haqida
4. Bolalar vokal-xor jamoasini tashkil etish va bolalar ovozining yoshiga xos xususiyatlari haqida
5. Xorga oid adabiyotlar bilan tanishib borish.
6. Xor jamoasini tashkil etish, oʻquv-tarbiyaviy, rahbarlik qoidalarini oʻzlashtirish.
7. Jamoani konsert chiqishga tayyorlash bosqichlari haqida
8. Xor texnikasi, qoʻshiq oʻrgatish uslublari, koʻp ovozlikka oʻtish yoʻl-yoʻriqlari haqida tasavvurga ega boʻlish.
9. Ijroda nafas olish va undan foydalanish mashqlari
10. Xor asarlaridan nusxa koʻchirib, ularni oʻzlashtirish.

GLOSSARIY
(maxsus atamalar ro'yxati)

Italiyancha	O'zbek	Izoh
<i>Agoge</i>	<i>Agogika</i>	Yunon. <i>agoge</i> – chekin, chetlashtirish; musiqiy ijro ifoda vositalaridan biri, tekis sur'at va aniq ritm yaxlitligini saqlagan xolda ulardan qisqa muddatlic hekinishlar.
<i>Womans chorus</i>	<i>Ayollar xori</i>	Ayollar ovozlari: soprano, metstso-soprano, kontraltodan tarkib topgan xor.
<i>Academic style</i>	<i>Akademik uslub</i>	Mumtoz (klassik) namunalar izidan boruvchi uslub. Akademik ijro, o'akl mukammalligiga intilish va me'yordagi qat'iy did naqdligini ko'zlaydi.
<i>Academic chorus</i>	<i>Akademik xor</i>	Mumtozmusiq, zamonaviykompozitorlarasarlarinibutundiapazondab irtekis, akademikuslubida, ya'ni kuylash usuli niqobdor xolda bo'lib, tovush ravon, ovozlari xor partiyalariga aniq bo'lingan bo'lib, ijro etadigan asosan professional, ba'zangina badiiy xavaskorlik xor jamoalarining nomi.
<i>A'cappella</i>	<i>A'cappella</i>	A'kapella, ital. <i>a'cappella</i> – kapella uslubida; cholg'u asboblari jo'rlixisiz xor bo'lib kuylash.
<i>Akkompanement</i>	<i>Akkompane ment</i>	Frants. accompagnement – jo'rlik; musiqiy asarga jo'r bo'lish.
<i>Akkordo</i>	<i>Akkord</i>	Ital. <i>accordo</i> – muvofiqlashtiraman; balandligi turlicha uch va undan ortiq tovushlarning qo'shilib,

		yaxlit holda yangrashi. To'rt tovushli akkord – <i>septakkord</i> , besh tovushli akkord – <i>nonakkord</i> , olti tovushli akkord – <i>undetsimakkord</i> deyiladi.
<i>Accentus</i>	<i>Aktsent</i>	Lot. <i>accentus</i> – urg'u; sadolanishni kuchaytirish xisobiga tovush yoki akkordni alohida ta'kidlash. (>, ^, sf)
<i>Aleatoriko</i>	<i>Aleatorika</i>	Lot. <i>alea</i> – tasodif; musiqa yaratish va ijro etish uslubi. Uning asosida tasodifiy paydo bo'ladigan tovushlarni ijodiy foydalanish yotadi.
<i>Al'teratio</i>	<i>Al'teratsiya</i>	Lot. <i>alteratio</i> o'zgarish; tovush nomini o'zgartirmagan holda uning balandligi yarim ton yoki bir tonga ko'tarish yoki pasaytirish. Diez - #; dubl-diez- X; bemol – b; dubl-bemol - °; bekar - §.
<i>Annotatio</i>	<i>Annotatsiya</i>	Lot. <i>annotatio</i> – mulohaza, fikr; musiqiy asar mazmunining muxtasar bayoni.
<i>Ensamble</i>	<i>Ansambl</i>	Frants. <i>ensemble</i> – birga, birgalikda; ansambl musiqada, baletda, arxitekturada qo'llaniladi: 1. Jamoaviy kuylash, musiqiy cholg' u asboblari ijrosida uyg'unlik; 2. Xor san'atida– xor sadolanishining ifoda vositalaridan biri.
<i>Antifone</i>	<i>Antifon</i>	Yunon. <i>anti</i> – qarshi, phone – tovush, qarshi, javoban yangrovchi sado; ikki xor yoki yakkaxon va xorning navbatma-navbat kuylashi.
<i>Aralas hxor</i>	<i>Aralas hxor</i>	Turli jinsli (erkaklar va ayollari yoki bolalar) ovozlarning qo'shilishidan tarkib topgan xor jamoasi–odatda soprano, alt, tenor va baslardan iborat.

<i>Aranger</i>	<i>Aranjirovka</i>	Frants. <i>aranger</i> –tartibga solish,tuzatish; muayyan tarkibga mo'ljallangan musiqa asarini o'zgai jrochilarga moslashtirish.
<i>Articulo</i>	<i>Artikulyatsiya</i>	Lot. <i>articulo</i> – parchalayman, bo'laman; 1. Ovoz yoki musiqa cholg'u asboblari to'vushlarni bir- biriga uzviy bog'lab, yoki bog'lamasdan ijro etish usuli: legato – to'vushlarning uzviy bog'lanishi; staccato – to'vushlarni uzoq – uzoq tarzda ifodalab berish, non legato – to'vushlarni kam bog'lanishi. 2. To'vushlarni talaffuzida zarur bo'lgan, nutq organlari faoliyati.
<i>Ataccare</i>	<i>Ataka</i>	Ital. <i>ataccare</i> – hujum qilmoq, bog'lanmoq, qo'shilmoq; 1. Vokal metodikasida ovozning nafas olish holatidan– to'vush hosil bo'lishini bildiruvchi atama. 2. Musiqiy asarning boshqa qism yoki bo'limiga to'xtovsiz, jadal o'tishni ifodalovchi belgi. Bunda dirijyor qo'lini tushirmasdan navbatdagi qismni boshlaydi.
<i>Auftaktus</i>	<i>Auftakt</i>	Nem. <i>auf</i> –ustida, lot. tactus – tegish; qo'l bilan ishora qilmoq, birlamchi ogohlantiruvchi qo'l ko'tarish harakati kabilardan iboratdir yorlikning o'ziga xos imo – ishorasi.
<i>Basso ostinato</i>	<i>Bassoostinato</i>	Ital. <i>basso ostinato</i> –tayanchbas; musiqa asarida to'xtovsiz takrorlanuvchi bas ovozidagi kuy tuzilmasi.
<i>A kind of chorus</i>	<i>Bir jinsdagi xor</i>	Bir turdagi ovoz (bolalar, ayollar, erkaklar) dan tashkil topgan xor.

<i>Childrens chorus</i>	<i>Bolalar xori</i>	Yoshi xususiyatiga ko'ra farqlanadigan xor: 6-7 – 10-11 – kichik maktab yoshidagi xor; 11 -14 – o'rta maktab yoshidagi xor; 14 -16 – katta maktab yoshidagi xor.
<i>Vokalize</i>	<i>Vokaliz</i>	Frants. <i>vocalize</i> , lot. <i>vocalis</i> –unlitovush; 1. So'zsiz unli tovushlarda kuylash uslubi. 2. Xor uchun vokaliz uslubidagi asar.
<i>Gamma</i>	<i>Gamma</i>	Oktava oralig'idagi tovushqator.
<i>Garmonica</i>	<i>Garmoniya</i>	Yunon. <i>harmonica</i> – bog'lanish, hamohanglik, ohangdoshlik; musiqaining ifoda vositalaridan bo'lib, tonlarning ohangdoshlikka qonuniy birlashishi va ohangdoshliklarni ketma-ket bog'lanib kelishiga asoslanadi.
<i>General pauza</i>	<i>General pauza</i>	Lot. <i>generalis</i> – umumiy, bosh; ansambldagi barcha ishtirokchilarning birvaqtdagi to'htashi (odatda to'satdan bo'ladi), davomiyligi bir taktdan kam emas, qisqacha lotin harf bilan G.P.tarzida ifodalanadi.
<i>Geterofoniya</i>	<i>Geterofoniya</i>	Yunon. <i>heteros</i> – boshqa, phone – tovush, ovoz; bir ovozli kuyni birgalikda ijro qilganda, imrovizatsiya tufayli vaqti – vaqti bilan yuzaga keladigan ohangdoshlarning paydo bo'lishi.
<i>Homofoniya</i>	<i>Gomofoniya</i>	Yunon. <i>homophonia</i> –ravon, unison, homos - bir, phonus – ovoz; ko'p ovozlik turi.Gomofoniyada birovovz etakchi bo'lib, qolgan ovozlar unga bo'ysunadi.
<i>Dia pszon</i>	<i>Diapazon</i>	Yunon. <i>dia pason (chordon)</i> – hamma (torlar) aroovoz, soz yoki jamoa, xususan xorning eng pastdan – eng balandigacha bo'lgan tovushlar hajmi.

<i>Divizi</i>	<i>Divizi</i>	Ital. <i>divisi</i> – bo’lingan; xor, shuningdek orkestr partiyalarini ikki - uch va undan ortiq ovozlarga vaqtinchalik bo’linishi.
<i>Diktio</i>	<i>Diktsiya</i>	Lot. <i>dictio</i> – nutqtalaffuzi; kuylashda adabiy matnni to’g’ri (savodlivaaniq) talaffuz qilish malakasi. Yaxshi diktsiya– vokal, shuningdek xor ijrosining muhim shartlaridan.
<i>Dinamis</i>	<i>Dinamika</i>	Yunon. <i>dinamis</i> – kuch; tovushlarning sadolanish kuchi bilan bog’liq bo’lgan jarayon majmui. Musiqaning eng muhim ifoda vositalaridan biri. Dinamiktuslar – <i>forte</i> , <i>piano</i> , <i>cresc.</i> , <i>dim.</i> va boshqalar.
<i>Diriger</i>	<i>Dirijyor</i>	Frants. <i>diriger</i> – boshqarish; musiqa asarini jamoaviy ijrosi (orkestr, xor, ansambl)ga rahbarlik qiluvchi san’atkor.
<i>Dissono</i>	<i>Dissonans</i>	Lot. <i>dissono</i> – moslanmay yangrayman; moslashmaganlik (noohangdoshlik) hissini uyg’otuvchi va konsonansni bartaraf qilishga yo’naltirilgan hamohanglik.
<i>Genus</i>	<i>Janr</i>	Frants. <i>genre</i> , lot. <i>genus</i> – xil, tur; o’ziga xos xususiyatlar majmui bilan belgilanadigan musiqa asarlari turlari.
<i>Dvoynoy xor</i>	<i>Juft xor</i>	1. Ikki tarkibga ajratilgan xor, ya’ni bularning har biri o’z navbatida mustaqil – soprano, alt, tenor va baslardan iborat partiyalarni ijro etadi. 2. Ikki tarkibli xor uchun yozilgan asar.
<i>Imitato</i>	<i>Imitatsiya</i>	Lot. <i>imitato</i> – taqlid, ergashish; ko’povozli musiqa uslubi tamoyillaridan. Birovozda sadolangan kuy, shu zahoti yoq u yoki bu darajadagi aniqlik bilan

		takrorlanadi.
<i>Intervallum</i>	<i>Interval</i>	Lot. intervallum – oraliqmasofa; ikki musiqa tovushi orasidagi balandlik oralig'I o'zaro bog'lanishi.
<i>Interpretatio</i>	<i>Interpretatsiya</i>	Lot. interpretatio – talqin etish; musiqa asarining ijrochi tomonidan badiiy etuk talqin iinterpretatsiyaning vazifasi – asar mazmuni va g'oyasini to'liq va ishonarli darajada ochib berish.
<i>Intono</i>	<i>Intonatsiya</i>	Lot. intono – baland talaffuz etaman; 1. Badiiy obrazning musiqa tovushlari orqali ifoda etish; 2. Uncha katta bo'lmagan, nisbatan mustaqi kuychan ibora. 3. Musiqa ijrosida tovush balandligini aniq ifoda etish; 4. Musiqa asboblarning tovushqatoridagi tonlarni balandlik va tembr jihatdan aniq aks ettirish.
<i>Kamerniy xor</i>	<i>Kamer xor, kichik xor</i>	Kichik tarkibli (30-40) ijrochidan iborat xor; kamerijrochi (xonanda, ansambl)ga xos sifatlar; alohida noziklik, ijroni detallashtirish, dinamik va ritmik o'zgaruvchanlikka boy bo'ladi.
<i>Canon</i>	<i>Kanon</i>	Yunoncha canon – me'yor, qoida; kuyning barcha ovozlardagi aniq takrorida qat'iy taqlid (imitatsiya)ga asoslangan polifonik musiiqa shakli. Har bir ovozning kuyi tugamasdanturib, ayni shu kuy keyingi ovozda boshlanadi, boshlovchi ovozproposta (ital. "jumla"), taqlid qiluvchi ovoz–

		risposta (ital. “javob”) debataladi.
<i>Cantare</i>	<i>Kantata</i>	Ital. <i>cantare</i> – kuylash; tantanavor yoxud lirik –epik tabiatg aega, yakkaxon, xor va orkestr uchun yozilgan vokal-cholg’ u asar.
<i>Kapella</i>	<i>Kapella</i>	Ital. <i>cappella</i> –xor jamoasi.
Namuna sifatida ko'rsatiladigan bir qator mashqlar bilan darslarni boshlash mumkin. Mashqlarni maqsadlarini talabalarga tushuntirib berish lozim

Mashqlar skripka kalitida berilgan bo'lsa ham, bas kalitlarida yigitlar ham ijro etishlari mumkin. Ovoz mashqlarini muntazam o'zgartirib borish lozim, lekin ba'zi mashqlarni rejada saqlagan holda ijro etib borish mumkin.

Talaba ovozlari mashqlardan so'ng bir oz dam oldirgan holda o'qituvchi o'tiladigan asarning mohiyati yoki tarixi haqida so'z yuritishi maqsadga muvofiq.

Bu vaqt ichida ularning ovozlari va ovoz paychalari bir oz tiniqib turadi. Qanday mashqlardan dars jarayonini boshlashni va kuylatishni xormeysterning o'zi tanlaydi. Bu mashqlarni kuylashda xor ohangini birlashtirib ansamblga erishmaguncha bir necha bor qaytarish mumkin. Texnik jihatdan mashqlarni

alohida ovozlarda ham to'xtalib ishlab, mashq ohangi va hissalarini birdek ansamblda kuylatib, tekislab, barcha ovozlarni birga kuylatganda tiniq, sof ohanglarni ijrosiga erishish zarur.

Dirijyor qanday jamoada : o'rta maktab xori, talabalar xori professional yoki havaskorlar xorida ishlashdan qat'iy nazar har doim ishni xor ovozlari mashqlari bilan boshlash zarur. Mashq jarayonlarida xor ishtirokchilariga tovush hosil qilish, ovozlarga tazyiq o'tkazmay kuylash talab etiladi. Mashqlarni ijrosida xorning ansambliga erishish zarur. Dars jarayonida dirijyor xor ishtirokchilarining ovoz temblari, ritmik bir hillik, xor birligi va aniq ijrosiga erishadi. ”

4- modul. Nafas va zanjir nafas malakalari

Xor ishtirokchilari kuylash vaqtida, ya'ni tovush hosil qilishda nafasni to'g'ri yo'lga qo'yishi muhim rol o'ynaydi. Kuylash vaqtida nafas olish tez, qisqa vaqt oralig'ida sodir bo'lib, nafas chiqarish esa bir qancha vaqtga cho'ziladi. Kuylash jarayonidagi nafas fiziologik nafasdan keskin farq qilib, ijro etilayotgan asar harakteriga qarab o'zgarib turadi.

Xonandalik nafasi bu shunday jarayonki uni xonanda nafaqat diqqati balki irodasi bilan buysundiradi. Xorda nafas pastki quvurg'a – diafragma usulida olinadi. Kuylash jarayonida nafas olishning bir qancha turlari aniqlangan: pastki qovurg'a kengayuvchi nafas, yelka kengayuvchi nafas, qorin bilan nafas olish, ko'krak bilan nafas olish.

Kuylash vaqtida nafas olishning pastki qovurg'alar kengayuvchi nafas olish va qorin bilan nafas olish turlarini ishlatish ma'quldir. Diafragma odam organizmida ko'krak va qorin bo'shlig'ini ajratib turadi. Pastki qovurg'alar va diafragma vositasida nafas olishda, nafas olish va chiqarish diafragma orqali tartibga solinadi. Xonanda xuddi gul hidlagandek nafas oladi. Bunda o'pkalar kengayib pastki qovurg'alarni tashqi tomonga suradi va diafragma pasayadi.

Natijada qorinning devori oldinga shishib chiqadi. Bu holda yelka va ko'krakning yuqori qismi o'zgarmaydi. Nafas chiqarish qorin tarang qobig'ining xarakati bilan boshqariladi va havo yuqoriga yo'naladi. Ovoz pardalarini tebranishga undaydi. Pastki qovurg'alar va diafragmalar asta-sekin o'z qobig'iga qaytadi. Nafasni tejam bilan sarflash xonandaning tajribasi va mahoratiga bog'liq.

Nafas asarning tempiga, jummalarning katta – kichikligiga qarab bir maromda, tez, yengil, tekis, cnyqyr olinadi. Nafas tejam bilan sarflanishi kerak. Asarlar kuylanganda haddan tashqari ko'p nafas olish mumkin emas. Bu ovozning zo'riqishi, shovqinli bo'lishiga olib keladi.

Xor rahbari xorda to'g'ri nafas olish va uni tejab sarfkash usllarini shakllantira boradi.

Zanjir nafas. Xorda ko'p ishlatiladigan nafasning yana bir turi zanjir yoki ulama nafas olish usulidir. Musiqa asarlarida uzoq davom etuvchi kuy jummalari bo'lsa, xor yoki xor partiyalarini uzluksiz sadolanishini ta'minlab beruvchi **ulama (zanjir)** nafas qo'llaniladi. Bu holda xonandalar navbatma-navbat nafas oladilar va bu o'z navbatida o'z partiyalariga juda ehtiyotkorlik bilan sezilmas darajada qo'shilishlarini talab qiladi. Aks holda ansambl birligi buzilishi mumkin. Ba'zi asarlar boshdan oxirigacha ulama nafasda ijro etishni talab qiladi. Kuyning yoki xor asarining bog'liqligini uzviyligini ta'minlash maqsadida zanjirnafas qo'llaniladi. Zanjir nafasda kuylashni o'ziga xos qoidalari bor:

5. Xor ishtirokchisi ikki yonidagi guruhdoshlari kuylayotgan vaqtda nafas olishi mumkin.
6. Nafasni olgach, guruxdoshlari va xorga sezdirmasdan qo'shib kuylab ketishi kerak.
7. Olingan nafas oddiy nafasga nisbatan tezroq olinishi kerak.
8. Nafasni unli tovushlar kuylanib turgan vaqtda olinishi maqsaga muvofiq.

Dirijor jamoa ishtirokchilarining kuylash malakalarini yanada rivojlantirish va takomillashirish maqsadida qator kompleks ovoz mashqlarini ishlab chiqishi kerak.

“6.2 Abdominal, Diaphragmatic, or Intercostal Breathing

6.2.1 ABDOMINAL, DIAPHRAGMATIC, OR INTERCOSTAL BREATHING

Proper breathing is important to good singing. Most persons breathe in a shallow manner that is inadequate for the purposes of singing. It will sustain life however, and be usable for normal speech. As a general rule, young people must be reminded of natural breathing or what conductors most often refer to as abdominal, diaphragmatic, or intercostal breathing. It is necessary to point out that intercostal breathing, rather than clavicular breathing, is desirable for the following reasons:

1. A singer can take the necessary amount of air without tightening muscles in the throat.
2. A singer can inhale more air.
3. A singer can control the air once it is inhaled. The air must be released in a continuous supply for sustained singing.

Abdominal, diaphragmatic, or intercostal breathing requires correct posture for singing. There is no need for elaborate diagrams to illustrate good posture. The singer should stand erect, but not ramrod straight. The weight should be evenly distributed on both feet and the singer should carry the weight on the balls of the feet. The chest should be high and the shoulders slightly sloped, not hunched up in an attempt to "square" them. In effect, an erect but nonmilitary stance will be

the result of a good singing posture. When students are seated they should be told to sit forward in their chair and not use the back of the chair. Often, singers are asked to rehearse in chairs that do not reinforce a good singing posture, or that do not even allow for a good singing posture ...”¹³

“6.2.1 Abdominal

Diafragmali nafas.

Yaxshi kuylashda to'g'ri nafas olish muhim. Ko'pchilik xonandalar nafasini chuqur, kerakligicha olmaydilar. Oddiy nafas bu hayot , so'zlashuv uchun mos.

Yosh xonandalar shuni yodda tutishlari kerakki kuylash uchun asosan qorin bo'shlig'I, diafragmada (qovurg'ada) olingan nafas qulayir.

O'rta qovurg'a biqin nafasi afzalliklari:

- 1.Xonanda tomoq mushaklarini zo'riqtirmay keragicha nafas olishi kerak.
- 2.Xonanda ko'proq nafas olishi mumkin.
- 3.Xonanda nafas olish jarayonini nazorat qilishi kerak.

Barcha nafas olish yo'llarini kuylashga tadbiq etayotganda qomat to'g'ri bo'lishi kerak. Xonanda o'z og'irligini ikki oyoqga bir me'yorda taqsimlab, barmoqlariga tayanib tirishi lozim. Qomatni ko'krak qismi yuqori ko'tarilib, yelka biroz egiladi,lekin o'ta bukilib ketilmaydi. Dars jarayonida talabalarga stulda qanday o'tirish va kuylash xolati haqida muntazam eslatib borish zarur.Bunda kreslo yoki stulga taqalib o'tirmasdan oyoqlar erga mustahkam qo'yilgan holatda o'tirilishi kerak. Bir qator ovoz mashqlarini turgan holatda, nafaslarni tog'ri olib kuylatish zarur.”

¹³ Choral Techniques **By:**Gordon Lamb c o n n e x i o n s Rice University, Houston, Texas < <http://cnx.org/content/col11191/1.1/> > 193-195

5- modul. Kuylash yo'llari: legato, non legato va stakkato.

1. Kuylash yo'llari: legato, markato, non-legato va stakkato.

Xor bo'lib kuylashda vokal san'atida kuylanganidek bir qator kuylash yo'nalishlari mavjud: **legato, markato, non-legato va stakkato.**

Legato - musiqa san'atida, vokal-xor ijrochiligida keng qo'llaniladigan asosiy shtrixdir. Unda ohang bir tekis, bog'lanib yangraydi. Kuylarni yzviy ravishda bog'lab kuylash legatoning asosiy formasi. Legato kuylashga erishish uchun xonanda frazalarni intonatsiyasi harakatlanishini sezishi kerak. Xonanda melodik ko'rinishni avval ongida hayolan tasavvurla tuzib, so'ng uni ijro etadi. Legatoda barcha uhli tovushlar bir-biri bilan undosh tovushlar orqali balandligi, shakli o'zgargan holda ketma – ketligini buzmay maksimal artikuluatsiyada kuylanadi. Qator quyulib kelayotgan kuylarni bog'lab kuylash natijasida ovoz tembri jilosi o'ziga xos o'zgaradi.

Markato - legatoga nisbatan kamroq lekin ishlatiladigan shtrixlardan.

Non-legato - notalarni alohida-alohida, bog'lanmasdan kuylanadigan shtrixlardan. U legato va stakkatoning oralig'idagi uslub bo'lib unda tovushlarni juda bog'lab ham emas, lekin uzib ham emas balki alohida kuylanadi.

Stakkato - notalarni uzib-uzib, ta'kidlab ijro etiladigan shtrix. Stakkatoning eng muhim jihati tovushlar orasida tsezuralarning bo'lishi, ya'ni tovushlar bog'lanmasdan, uzib-uzib jaranglashiga erishish talab etiladi. Bu ovoz yo'nalashida jaranglash qisqa bo'lab, bo'g'inlarda turtki aktsentlar nafas tayanchi bilan uriladi. Stakkato malakasini egallash chog'ida talabalarga o'gituvchi o'zi avval uni amalda kuylab ko'rsatishi maqsadga muvofiq.

2.“5.10 Marcato and Legato Diction

5.10.1 MARCATO AND LEGATO DICTION

There are two general types of diction, or styles of singing that a choral director will teach. These are marcato and legato diction. Marcato diction is sharply defined with explosive consonants, and often, accented vowels. It is a strong diction reserved for forceful, declamatory texts. This diction would be appropriately used in instances such as that presented in figure 1. This is a good example of the power that may be obtained with marcato diction. Not only are the consonants exaggerated but the vowels also receive a heavy accent. **Legato** diction, misapplied in this instance, would destroy the forceful nature of this opening statement.

In legato diction each note should be tied to the next with no space between them.

This is somewhat difficult for young singers to do. They often allow the intensity to drop off in the tone toward the end of each note, creating a space between notes. Again, the principle of growth in the tone will help achieve a smooth, flowing line.

The consonants | m | and | n | take on special significance in legato diction. They may be elongated somewhat, being sounded as a hum slightly before the consonant is articulated. These sounds help carry a well-shaped tone through to the next vowel. Many choral works, of course, combine marcato and legato diction. The director needs to determine which type of diction will be appropriate to each phrase and emphasize that fact to the choir. Figures 2 and 3 are examples of a work that incorporates both types of diction in an alternating manner. It is also occasionally necessary to sing staccato, but this isn't as much a style of diction as it is a special type of light, quickly articulated diction that might be categorized at the very extreme end of marcato diction.”¹⁴

¹⁴ Choral Techniques By: Gordon Lamb c o n n e x i o n s Rice University, Houston, Texas < <http://cnx.org/content/col11191/1.1/> > 173-175

“5.10.Markato va legato ijrosida talaffuz.

Bu talaffuzdan foydalanishdan tavsiya etiladi.1- rasmdagi xolatta Markato talaffuzi juda o'rinli misol bo'la oladi. Urg'u nafaqat undosh tovushlarga , balki unli tovushlarga beriladi.

Legato talaffuzi bu holda juda noo'rindir,chunki asar tabiiy kuchni yo'qatadi. Legatoda har bir nota o'zaro mayin,yumshoq ketma-ketlikda ijro etiladi. Notalar orasida hech qanday bo'shliq bo'lmaydi. Yosh ijrochilar uchun bu murakkabdir.

Ular legatoning ijro jarayonida kuyning oxiriga etguncha bir to'n pasayishi, notalar orasida bo'shliqlar paydo bo'lish ehtimoli baland bo'ladi. To'nda turish uchun tekis kuylash maqsadga muvofiqdir.Legatoda m,n,p undoshlari alohida ahamiyatga ega.Ular bo'rttirib,cho'zib kuylansa kelayotgan unli tovush uyg'un ohagda yangrashiga yordam beradi.

Yuqorida aytilgandek, ko'pgina xor asarlarida asosan markato va legato talaffuzi qo'llaniladi.

Dirijyor talaffuzning qaysi turi qaysi musiqiy jumlagam mosligini aniqlab,xor ijrochilariga ko'rsatib beradi.2- rasmda ikkala talaffuz ketma-ketligi ko'rsatilgan.Undan tashqari vaqti-vaqti bilan stakkatoda kuylash ham berilgan. Stakkato ham ijrochilikning turlaridan biri. Odatda bastakorlar asarlarining ta'sirini kuchaytirish uchun shunday tirlardan foydalanadi va ijrochilarga taqdim etadi.”

Bu yuqorida aytib o'tilgan kuylash yo'llari a'kapella va jo'rli asarlar ijrosida muntazam ishlatiladi

6-modul. Asarlarda musiqiy frazalarini garmonik akkordlari

ustida ishlash.

1. **Melodik (gorizontal)** – xor partiyalaridagi soz, ya'ni intervallarning aniq intonatsiya qilinishi;

2. **Garmonik (vertikal)** - Umumiy xor sozi, bu akkordlarning aniq intonatsiya qilinishi.

Xor sozining tiniq va yaxshi bo'lishi xonandalarning musiqa tayyorgarligiga, ovoz apparatining holatiga, xorning qanday joylashganligiga, xona yoki sahnaning akustikasiga bog'liq bo'ladi. Xonandalar qo'shiq aytishda vokal- eshitish qobiliyat (intonatsiya) larine nazorat qilishlari va ovozning umumiy xorga nisbatan qanday eshitilayotganini kuzatib borishi, ladni sezishi zarur.

Xor sozining muhim omillaridan yana biri, **xonandalarni vokal tarbiyalashdir**. Qo'shiq aytis, solfedjio kabi mashg'ulotlar orqali xor a'zolarining vokal va garmonik qobiliyati rivojlantiriladi. Xor sozlanishi sifati xonandalarning musiqa tayyorgarligi, ovoz apparati ansambllik holati, bino akustikasiva albatta xor rahbarining eshitish qobiliyatiga bog'liq. Xor kuylayotgan soz doiraviy (zonniy) deb ataladi. Bu uning u yoki bu tovushni kuylash sharoitiga qarab, unung balandligi ma'lum doira chegarasida pasayib yoki ko'tarilib, bir qancha o'zgarishi mumkin. Xor sozi toza intonatsiyaga bog'liq. Intonatsiya vas soz bir-birlari bilanuzviy bog'langan bo'ladi. Xorda toza intonatsiyasiz soz bo'lmaydi.

Intonatsiya (lotincha “intono” – qattiq talaffuz qilaman) – tovush balandligini ovozda aniq talaffuz qilish. U-1) Badiiy obrazning musiqa tovushlari orqali ifoda etish; 2) Unga katta bo'lmagan, nisbatan mustaqil kuychan ibora; 3) Musiqa ijrosida tovush balandligini aniq ifoda etish; 4) Musiqa asboblarining tovush qatoridagi tonlarni balandlik va tembr jihatidan aniq aks ettiradi.

2. **Asarlarda musiqiy frazalarni intonatsion sof kuylash ustida ishlash.**

“Yor-yor” O. Abdullayeva musiqasi, H. Rizo she'ri.

Ushbu asar aralash xor uchun Oydin Abdullayeva tomonidan Hamroqul Rizo she'riga bastalangan.

Asar “lapar” janriga yaqin yozilgan bo'lib, uni talabalar tomonidan ijro etilishini bir muncha yengillashtiradi. Xalq musiqiy janrlariga yaqin yozilgan asarlar, jumladan a kapellalarni kuylash, talabalarga shu janrni tushunib, his etib kuylashlariga yaqindan yordam beradi.

Asar *a capella* janrida bo'lib, aralash xor uchun yozilgan. Bunda: Soprano, Alt, Tenor va Bas ovoz guruhleri hamda Soprano solo ijro etishadi.

Asar murakkab 3 qismli shaklda yozilgan: A+B+A₁.

Kirish qismi – 16 takt ayollar ovozi guruhi bilan boshlanadi.

1 – qism – 32 taktdan iborat bo'lib, o'z ichiga 1-3 tsifralarni olgan.

2 – qism –bunda Soprano ovozli yakkaxonandaga ayollar ovoz guruhi jo'rlik qiladi (12 takt).

Asarning avj qismida butun xor ovozlari *f* ga kuylaydi. 5 – tsifradan tenor ovoz guruhlariga ayollar ovoz guruhi jo'rlik qiladi.

Asarning yozuv uslubi asosan gomofon-garmonik bo'lib, avj qismning davomida polifonik yo'lning imitatsiya elementlari har bir ovoz guruhida qo'llanilgan. Masalan:

Asar re major tonalligida yozilgan, unda hech qanday modulatsiya va og'ishmalar uchramaydi.

Ovoz yo'nalishi ijro uchun juda qulay bo'lib, asarning badiiyligini yanada tabiiy yangrashiga imkon yaratadi. Asarning o'lchovi – **6/8**. Ushbu o'lchov Bu o'lchov “Yor-yor”larning xarakteriga mos bo'lib, “Ufor” raqs usuli hisoblanadi. 6/8–murakkab o'lchovlardan hisoblanib, vaqti-vaqti bilan kompozitor uning ritmik ko'rinishini o'zgartirib turadi. Masalan, asarning boshida bunday ritmik ko'rinish qo'llanilsa:

Asarning 2 – tsifrasida esa deyarli bir-biriga zid bo'lgan ritmik uslub qo'llaniladi. Bu ham ritmik, ham ansambl ijrosida qiyinchiliklar tug'diradi. Bunda Soprano va Alt ovoz guruhlarida ritmik surat “triol” bo'lib ketgan bo'lsa, Tenor va Bass ovoz guruhlarida bir tekis yangraydi. Keyingi taktda esa aksincha erkak ovoz guruhlarida “triol”, ayol ovoz guruhlarida bir tekis kuylanadi.

Asar tempi – Allegro moderato – o'rta tezlikda. Asarda hech qanday agogika qo'llanilmagan. Dinamik belgilardan –*cresc.*, *p*, *mp*, *mf* va *f* uchraydi.

Xorning muvaffaqiyatli faoliyati uchun xorda vokal ishlari juda zarur tamoyillardan biridir. Vokal ishlarining maqsadi talabalarga to'g'ri kuylash malakalarini o'rgatish va o'stitirishdir. Masalan, nafasli tovush hosil qilish, sof

intonatsiyaga erishish, umumiy ansambl va xor sozini saqlash, aniq diktsiya, nyuansirovka ustida ishlash, talabalarning kuylashidagi nuqsonlarni bartaraf etish, to'g'ri ovoz hosil qilish, tovush yo'nalishi malakalarini o'rnatish kabi ishlarni o'z ichiga oladi. Vokal ishlari xorda muntazam va muttasil olib boriladi.

Asarda xor ovozlarning umumiy diapozoni:

Tovush yo'nalishining xarakteri o'ynoqi, sho'x – shodon. Tovush atakasi qattiq bo'lishi talab etiladi.

Alt guruhining musiqiy yo'nalishida xromatik yarim notalar uchraydi. Undan tashqari *glissandoni* oktava oralig'ida xromatik yo'nalishiga hamda ularning intonatsion aniq ijrosi uchun dirijor va kuylovchilar nihoyatda e'tiborli bo'lishlari kerak.

Bundan tashqari har bir yarim tonni nafasni tutib, tejab kuylash ham muhim ahamiyatga ega. Chunki nafas jo'rsiz asarning umumiy tonallikda saqlanib turishning asosiy poydevori bo'lib hizmat qiladi. Shuning uchun ham xorda jo'rsiz asarlar ko'plab kuylanishi talabalarning nafaqat ovoz imkoniyatlari, eshitish qobiliyatlarini, balki nafas kabi musiqachi uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Ko'p hollarda undosh harflar nota tovush boshiga yoki ohiriga to'g'ri kelgan vaqt eshitilmay qolishi bu talaffuz ansamblining ustida sust ishlanganligidan dalolatdir. Shu bois dars jarayonida bunday kamchiliklar talabalarning kelgusi ishida takrorlanmasligi qiyinchilik tug'dirayotgan harflar ustida muntazam ravishda ish olib borilishi zarur.

7- modul. Umumiy xor ansambli: ritmik, dinamik, intonatsiya

ustida ishlash

1-Guruhlar va umumiy xor ansambli- Ansambl xorning asosiy elementlaridan biri bo'lib, Tovushlar sadosidagi birlik, aniq temp va ritmda ovozlarning tembriga ko'ra hamohangligi, xor va jo'r, solist va xor ovozining uyg'unlashuvi natijasidir.

Xor ansambli musiqa ansambllarining eng keng va qiyin turlariga kiradi va o'z ichiga ko'p sonly ijrochilarni oladi. Ansambl so'zi (fransuzcha “ensemble”) – birga

ya'ni hamohanglik demakdir. Ansambl turli hil bo'ladi, xor san'atida – xor sadolanishining ifoda vositalaridan biri. Xor ijrosidagi ansambllar ikki ko'rinishda bo'ladi: 1) guruhlar ansambli- ma'lum xor partiyalarining qo'shilib uyg'unlikda kuylashi; 2) Umumiy ansambl – xordagi ansambllarning qo'shilishi, ya'ni partiyalarning hamohang sadosi;

Xor san'atida ansambl - xor partiyalarining , butun xorning birgalikdagi muvozanatli sadolanishidir. Bu demak, har bir xonanda faqat o'z partiyasigina emas, balki butun xorni eshita bilishi va o'z ovozi umumiy sadoga qo'sha bilishi kerak. Xor partiyalarida biror xonandaning ovozi o'ziga mansub guruga qo'shilmasa, shu partiyada ansambl bo'lmaydi. Guruhlardagi ansambl buzilgach bu hol umumiy ansamblga ham ta'siq qiladi va natijada umumiy ansambl hosil bo'lmaydi. Xorda to'liq ansambl barpo etish juda ko'p faktorlarni o'z ichiga oladi. Ular:

- intonatsiya ansambli;
- tembr ansambli;
- soz ansambli;
- dinamika ansambli;
- diktsiya-orfoepik ansambl;
- agogik ansambl ;
- tessitur ansambli;
- faktura yozuvi ansambli;

Qayd etilgan ansambl elementlaridan birortasi buzilsa, umumiy xor ansambli ham buziladi.

2.Ritmik va dinamik ansambllar.

Xor ijrochiligida badiiy ansambl turli ayrim ansambllardan tashkil topadi:

- 1) Dinamik ansambl – sadolanish kuchiga ko'ra ovozlarning qo'llanishi;
- 2) Ritmik ansambl – ijroning ritmik birligi ;
- 3) Tembr ansambl – ovozlarning tembriga ko'ra qo'shilishi;

- 4) Sur'at ansambli – ijroning sur'at birligi;
- 5) Garmonik ansambl - ovozlarning akkord, hamohanglikdagi muvozanatli sadosi;
- 6) Diksiyali ansambl – adabiy matnni kelishib talaffuz etish;
- 7) Intonatsiyali ansambl – tovush balandligini aniq sadolantirish.

Ko'rsatilgan ansamblardan birining buzilishi umuman xor sadolanishi ansamblining buzilishiga olib keladi. Yagona badiiy-ijrochilik ansambliga erishish, xormeystriyning eng qiyin vazifalaridan biridir. Vokal-texnik usullar va malakaning bir tipda bo'lishi, barcha asar tarkibi ijrosining birligi, asar mazmuni va g'oyaviy niyatini ochish haqiqiy badiiy ijrochilik ansamblini yaratishning muhim shartlaridan.

3. Tabiiy va sun'iy ansambl. Ovoz partiyalari teng tessitur sharoitda bo'lib, bir xil registrlardan foydalanilsa, hamohanglik tabiiy bo'ladi. Bu **tabiiy ansambl** deyiladi. Partiturada ovoz partiyalari bir xil tessitur balandlikda (registrda) yozilib, ularga bir xil tovush dinamikasi ("f", "p" yoki "mf" l. k.) – berilgan bo'lsa, har bir ovoz partiyasi, shuningdek, butun xor tabiiy sharoitda sado beradi. Bu sado hamohang, juda uyg'unlashgan (bemalol) bo'ladi.

Sun'iy ansambl – Ba'zi xor asarlarida muzika sifatlari yetarli darajada bo'lmaydi. Bunday asarlarni xor bilan ijro qilishda dirijyor sun'iy ravishda partiyalar sadosini uyg'unlashtiradi, ya'ni dinamik jihatdan tenglashtiradi. Bu sun'iy ansambl deyiladi.

Agar asarda partiyalaridagi ba'zi epizod, fraza yoki akkordlar har xil registrlarda yozilgan bo'lsa, (bir partiya yuqori registrda, ikkinchisi pastda) ovoz kuchi bir xil jaranglamaydi. Xorda umumiy ansambl buziladi. Bunday holda dirijyor ovozlarning dinamikasini (kuchini) sun'iy tenglashtiradi. Ba'zan hamma partiyalar bir xil tessitura sharoitda bo'lib, faqat bitta partiyada pastki registr notalari berilgan va umumiy xorga "mf" qo'yilgan. Dirijyor uch partiyada "mf" qoldirib, to'rtinchi partiyaga "f" qo'yib, uni kuchaytiradi va umumiy ovoz tengligiga erishadi. Sun'iy ravishda hamohanglik barpo qiladi. Xor adabiyotida xor partiyalarining bir-birlaridan baland yoki past tessitura sharoitida yozilgan xor

fakturalari mavjud. Masalan, aralash xor uchun yozilgan partituralarda tenor partiyasi altga ko'ra, alt sopranoga ko'ra balandda yoki tenor basdan, alt tenordan, soprano altdan pastda (ovozlarning kesishish hollari) bo'lsa, bunga ikki tomonlama qarash va ansambl turini aniqlash kerak.

Xor sadolanishida tessitura masalasi katta ahamiyatga ega. Tessitura sharoitiga qarab ansamblning tabiiy yoki sun'iylikini payqash mumkin. Tessitura sharoiti taxminan bir xil bo'lsa, ya'ni barcha xor qatnashchilari zo'r bermasdan past yoki yuqori kuylasa, yoxud barcha ovozlari o'rta registrlarda bo'lsa, tabiiy ansambl ortiqcha harakatsiz hosil bo'ladi. Sun'iy ansambl ovozlari har xil tessitura sharoitida bo'lganda qo'llanadi. U vaqtda sadolanishni meyoriga yetkazish uchun ovoz kuchi sun'iy bo'rttiriladi yoki aksincha susaytiriladi.

8-modul. Asarlarda talaffuz ustida ishlash

Xorda talaffuz. Xor san'ati – musiqa va adabiy poetik bjdoyotni organik birlashtiruvchi san'atidir. Asardagi adabiy tekst so'zlarini tinglovchilarga etkazib berish vositasi diktsiya deyiladi. Diktsiya asarning g'oyaviy mazmunini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Agar so'zlar poetik fikrni aniqlashtirsa, musiqa ularni emotsional bo'yoqlar bilan to'ldiradi, chuqurlashtiradi. Xor ijrochiligida xonandalardan to'g'ri diktsiya (lotincha diction –nutq talaffuzi), ya'ni adabiy tekstni aniq va ravshan talaffuz qilish talab qilinadi. Tovush o'rning to'g'riligi va nafas aktivligi diktsiyaga bog'liq. Tantanavor, qaxramonlik, dramatik xarakterdagi asarlar undosh tovushlarni ta'kidlab, aniq talaffuz etishni talab qilsa, lirik xarakterdagilariga esa mayin talaffuz mos. Vokal nutqi ifodali va "jonli" bo'lishi kerak. Agar unli tovushlar xonanda ovozi sadosi cho'ziqligini, kuchi va rang-barangligini ta'minlasa, undosh tovushlar esa asarning badiiy matnini mazmunini tushunarli va emotsional qilib ifodalashga imkon beradi. Vokal –xor musiqasida so'z va musiqa bibirini to'ldiradi va badiiy obraz yaratadi. Diktsiya aniq so'z talaffuzi ekan, u ijrodagi badiiy ifoda hamdir.

Lotin va ingliz tili talaffuzi.

“ 5. CHORAL DICTION: ENGLISH AND LATIN

| bv |. The first sound is | | as in "uh". The second vowel sound is also "uh" but is stressed and thus is marked | |. The schwa is probably the least understood and most mispronounced vowel sound in choral singing. When speakers, solo singers, or choirs mispronounce and stress unstressed syllables, the result is a stilted, meaningless succession of vowel sounds, much the same as the child who is asked to read an unfamiliar passage in front of the class. Some conductors, for example, substitute an "ah" vowel for the unstressed first syllable in "above" because "it sounds better." This is an absurd practice and it should not occur. A campaign needs to be mounted to save the schwa. It is a very important part of the pronunciation of our language, and its importance must remain unstressed! Other words containing the schwa are listed below. The syllable to be represented by the schwa is in bold letters. The error most often made is to pronounce these unstressed syllables as they are spelled, as in the example of the word "above." Another example is the more commonly mispronounced word, heaven. It is often incorrectly sung as heven instead of the correct pronunciation hevan. It is interesting that the same choirs (or solo singers) who mispronounce heaven will not mispronounce the second syllable of kingdom. Neither is the second syllable of

“5.11. Lotin va ingliz asarlari ijrosida talaffyz.

Xor ijrochiligida bir qator turli tillarda yozilgan asarlar ijrosi talaffuzida juda ko'p muammolar mavjud bo'ladi. Asosan ingliz tilidagi asarlar ijrosida S tovushuni ba'zi xor ishtirokchilari talaffuzida shivillab, ba'zilar esa hushtak chalgandek eshitiladi. Bularning oldini olish maqsadida har bir xor artistlari bilan bir qator talaffuz mashqlarini olib boorish zarur. Ana shunday harflardan biri D (the) harfi bo'lib, uni ham talaffuzida yuqorida aytib o'tilgan muammolar bor. Xor asarlarini turli davrda yaratilganligiga qarab harflar talaffuzi o'zgaradi. Shunday

harflardan yana biri R va G undosh harflaridir. Ushbu undosh tovushlarning jarangi va talaffuzi tugallayotganda o'ziga xos aniqlik bilan kuylansa, unli tovushlarning ketidan kelganda esa bog'lanib keladi kuylanishi talab etiladi. Shunday muammoli harflardan yana biri M (em) harfidir. Uning ham ijrosi yuqorida qayd etilgan undosh tovushlar bilan o'xshashdir. Anashu barcha muammoli harflarni jamoa bilan birga bir qator talaffuz mashqlari bilan ishlab, ansambl maromiga yetkazish zarur. Albatta buning ijrosi dirijyor yoki xormeystrga katta mas'uliyat qo'yadi. Harflarning noto'g'ri talaffuzi asarda keltirilgan matnni ma'nosini o'zgartirib yuborishi mumkin. Shu maqsadda asarni qaysi davrga mansubligi, kompozitor ijodidan kelib chiqqan holatda o'zi o'rganib chiqishi, so'ngra xor jamoasiga o'rgatishi lozim"

¹ Choral TechniquesBy:Gordon Lambc o n n e x i o n sRice University, Houston, Texas<http://cnx.org/content/col11191/1.1/> 161,179

9-modul. Dinamik nyuanslar.

Dinamika grekcha “dinamik” (dynamic) –kuch demakdir.

Musiqada dinamika tovush kuchini bildiradi. Tovushning dinamik belgisi nyuans (frantsuzcha “nyuantse”-tus) deb ham yuritiladi. Muzika asarini dinamik tuslarsiz tugal, to’laqonli asar deb bo’lmaydi.

Ba’zida nyuanslar bilan dinamik tuslarni ajratishadi. Lekin bu ikkala tushuncha bir-birini to’ldiradi va bir ma’noda ishlatiladi. Demak, nyuanslar- tovushning dinamik tuslaridir. Mana shu tovush kuchining asarning boshidan to oxirigacha taqsimlanishi uning dinamikasi deyiladi.

Asar mazmuniga qarab tovush kuchi ma’lum joylarda o’zgarishi mumkin. Dirijyor –interpretator asarni xorga o’rgatish jarayonida dinamik tuslarni, muzika tilini, tabiiy logik urg’ularni o’zlashtirgan holda har bir muzikaviy jumla va davrdagi fikrni xonandalarga o’rgata bilishi lozim.

Nyuanslar ham badiiy ifoda vositasi hisoblanadi. Asarning badiiy-g’oyaviy mazmunini ochishda badiiy ifoda vositalari (ifodali ijro, jumlalash, asarning asosiy ohangi-kuyining ravonligiga erishish) katta rol o’ynaydi.

Xorning ijrosidagi badiiylikka erishishida dinamik tuslarning ahamiyati cheksiz. Kompozitor tomonidan qo’yilgan dinamik belgilarni aniq bajarish, ya’ni uni tushina bilibgina qolmay, xorga (har bir partiyaga) o’rgata bilish kerak. Ma’lumki, har bir katta va kichik muzika jumlasini boshlanish, o’rta (avj) va oxirgi qismlarga bo’linadi. Xor rahbari shuni nazarda tutib, jumlalarning mantiqiy nuq tasini topishi va ijro qilishi (agar avtor tomonidan qo’yilmagan bo’lsa ham) lozim. Xorda to’g’ri fortissimo (“ff”) nyuansiga erishish birmuncha qiyinchilik tug’diradi. Chunki ovoz kuchi qattiq bo’lganda eshitish organlariga salbiy ta’sir qilishi sir emas. Qattiq ijroda ansamblga, yaxshi sozga erishish qiyin.

Asarning xarakteriga qarab forte ham “qattiq”, ham “yumshoq”, to‘liq jarangdor qilib ijro etilishi mumkin.

Xorda piano ijrosiga og‘ir, bosiq tovushda og‘izda yumib va ochib, bir ovozda (I oktavada) mashq qilib erishish mumkin. Piano pastki registrda yumshoqroq, o‘rta registrda ravon va yuqori registrda yengil, mayin bo‘lib eshitiladi. Umuman, xorda fortissimo va pianissimo ovoz kuchlariga erishish qiyin hisoblanadi. Xorda har qanday dinamik tusni barpo qilish uchun ko‘p mashq olib borish talab qilinadi.

Masalan, A.Yegorov “Dinamik tuslar ustida ishlaganda avvalo oktava-unison mashqlqridan boshlab, sekin asta garmonik tuzimlarga o‘tish maqsadga muvofiqdir” deydi va misollar tavsiya qiladi.

Quyidagi misollardan **kreshcendo, diminuendo, forte, piano, sforsando, aksent, pianissimo va fortissimo** kabi dinamik tuslar ustida ishlash uchun foydalanish mumkin.

Shuningdek, mashqlar har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, kreshcendo va diminuendoga bir tekis erishish uchun ma’lum bir notani yoki akkordni (o‘rta registrda) yaxshi zanjiriy nafasda (ikki, uch yoki to‘rt takt davomida) kreshcendo va diminuendo dinamik tuslarini hosil qilish mumkin.

Yoki ayollar xorida kreshcendo, erkaklar xorida diminuendo qilish (yoki aksincha) mumkin. Aksincha, oldin diminuendo, keyin kreshcendo kabi dinamik tuslarni hosil qilish ancha murakkab bo‘lib, xor kollektividan tegishli texnik malaka talab qiladi.

Shuningdek, **sforsando, subito piano, aksent** kabi dinamik belgilar ustida alohida yoki asarlardan epizodlar olib ishlash va malaka hosil qilish mumkin. Ayrim vaqtlarda bir asarning o‘zida uning harakteriga qarab ikki o‘zgarib turuvchi yoki qarama-qarshi (kontras) dinamik tuslar qo‘llaniladi.

Kuplet formasidagi asarlarda nyanslar har xil ko‘rinishda qo‘llaniladi. Masalan, qo‘shiqning bir bandi **m,F,S** da kuylansa, boshqa bandida piano qo‘llanilishi

mumkin. Bu usul kompozitor tomonidan qoʻllanilishi yoki dirijyorning interpretatsiyasi boʻlishi mumkin. Buni qilishdan maqsad, asarni bir xil nuansda emas, balki har xil qilib ijro qilishdir. Har bir bandning dinamikasi uning soʻz mazmuniga qarab aniqlanadi.

Shunday qilib, xor kollektivida jumlash qobiliyatini va har qanday dinamik tuslardan toʻgʻri foydalanish malakalarini oʻstirish ifodali ijroga zamin yaratadi.

Xor bilan romantik kompozitor R.Shumanning “Ave Maria” joʻrli asarini guruhlariga oʻrgatish. Oʻrganilayotgan asarni jamoaga fortepianoda ijro etib eshittirish, yoki boshqa jamoa ijro etgan namunalı video disklardan qoʻyib tinglash. Asarni melodik frazalarini guruhlar bilan ishlashda intonatsion tiniqlikka, asarni kichik-kichik jumllarini qizlar yoki yigitlar guruhları bilan qoʻshib kuylatganda intervallar va akkordlarnı sof ijrosi ustida ishlash. Musiqiy jumllarnı kuylash jarayonida koʻproq ishlatilınadigan zanjir nafasning toʻgʻri qoʻllab kuylanishiga eʼtibor berish. Xor partiturasini tsifralarga ajratib, oʻrganilgan qismlarini fortepiano bilan qoʻshib ishlash.

10-modul. Asarlarning badiiy-musiqiy obrazlari ustida ishlash va konsert chiqishlari uchun tayyorgarlik

Xor asarlarini badiiy va musiqaviy mazmunini ochish uchun uning toʻgʻri ijro tempini topa olish dirijyordan alohida eʼtibor talab etadi. Asarlar kompozitor tafakkuriga binoan maʼlum templarda ijro qilinmasa, ularning asl maʼnosi tinglovchılarga tushunarlı boʻlmaydi. Asardagi dinamik tuslarning aniq bajarilishi, poetic tekstning emotsional va aniq talaffuzi uning taʼsirchanligini oshiradi. Asarlar vokal-texnik, badiiy tomondan mukammal oʻrganilib sayqal berilgach, yakuniy mashgʻulotlarda barcha asarlarnı takrorlash zarur.

Xor sinfi musiqiy repertuarining badiiy-musiqiy ifodali ijrosi quyidagılarnı talab etadi:

- barcha musiqiy asarlarnı intonatsion tiniq kuylanishi;

- asarlar ijrosining musiqiy obraz dramaturdiyasiga mosligi;
- barcha musiqiy asarlarlarni yoddan bilish;
- asarlarni muallif ko'rsatgan tempiga rioya holda kuylanishi;
- Ovoz partiyalari birgalikdagi ijrosida uyg'unlikka erishish;
- Dirijyor jestlariga to'liq javob berish;
- jo'rnavoz bilan ansamblda kuylash;
- repititsiya jarayonida faollik.

IV. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

I-IV kurslarda talabalarga xorda kuylash qoidalari, vokal-xor ijrochilik bilimlari singdiriladi.

Ovoz sozlash mashqlari va printsiplari o'rgatiladi. O'qituvchi talabaning professional jihatlarini o'rganib chiqishi lozim: musiqa darajasi (eshitish, xotira, ritm), tovush apparatining imkoniyatlari, tovush hosil bo'lishidagi nuqsonlarni aniqlash (tomoq og'rish, yomon diktsiya). O'qituvchi talabalarni yil davomida vokal-ijrochilik imkoniyatlari bilan tanishib, kursga mos repertuar tanlaydi. Talabalar xorda kuylash ko'nikmalarini, to'g'ri tovush chiqarish ko'nikmalarini egallashadi. Unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, dirijyor qo'liga qarab kuylay olish hamda intonatsiya sofligiga erishiladi. Vokal-xor asarlari oddiylikdan murakkablarigacha tanlanadi. Talabalarni badiiy-musiqiy didlarini tarbiyalashda turli davrlarda yaratilgan eng sara xor asarlari bilan amaliy tanishtiriladi, xorda ishlash usuli, sharoiti, janri hamda talabalarni vokal ko'nikmalar mustaxkamlanadi. Asarlar talabalar repertuariga mos, temp va dinamik jihatdan kontrast xarakterga ega bo'lishi kerak.

“Xor sinfi” fanida vokal ijrochilik va dirijorlik texnikasi ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirib tarbiyalash davom ettiriladi.

. Talabalarda xorda kuylash, tovushni to'g'ri talaffuz etish, kuylanuvchi unli va undosh tovushlarni to'g'ri ijro eta bilish, to'g'ri tovush hosil qila bilish va diktsiya, dirijyor qo'liga qarab kuylay bilish, kuylash ko'nikmalarini takomillashtirib boriladi.

Talabalari O'zbekiston va turli davr chet el kompozitorlarining sara xor asarlari bilan tanishtirish orqali ma'naviy badiiy tarbiyalanadi. Xorda ishlash sharoitlari, usullari, janrlari hamda talabalarda vokal ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor - o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy jihatdan yanada boyitadilar. Amaliy mashg'ulotlarda fan yuzasidan o'tilgan mavzular asosida, talabalarning vocal- kuylash imkoniyatlari va mahoratini inobatga olib pedagog mashg'ulot olib boradi. Shuningdek darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish bilimini oshirish va boshqalar tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy ro'yxati

- Nafas va zanjir nafas malakalari ustida ishlash,
- bir ovozlik asarlarni kuylash ustida ishlash,
- Ikki, uch va ko'p ovozlik asarlarni kuylash ustida ishlash,
- guruhlarga bo'lib ishlash,
- akapella kuylash uchun ansambl.
- musiqiy frazalar intonatsion sofligi ustida ishlash,
- kuylash yo'llari: legato, bob legato va stakkato ustida ishlash,
- garmonik akkordlar ustida ishlash,
- umumiy xor ansambli: ritmik, dinamik, intonatsion ansambllar ustida ishlash,

- asarlarda talaffuz ustida ishlash,
- dinamik nyuanslar ustida ishlash,
- asarlarning badiiy-musiqiy obrazlari ustida ishlash,
- konsert chiqishlarga tayyorgarlik ko'rish.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Xor san'atiga oid materiallar bilan tanishib borish, xor jamoalar faoliyati bilan yaqindan tanishish, kontsert, xor festival tanlovlariga qatnashish, xor san'atining mashhur asarlarini va taniqli ijrochilarning ijodini bilish, audio va video yozuvlarini to'plash va foydalana bilish.

Talabalar mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning amaliy (yakka) ijrochilik xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- xor fani bo'yicha bilimlarini kengaytirish, ijro yo'llarini mukammal o'rganish;
- vokal –xor ijrochiligiga oid manbalarni to'plash va ularni ijro qilishga erishish;
- amaliy ijrochilik ko'nikmasini mustahkamlash;
- hududiy musiqiy uslublar bo'yicha asarlarni janrlar asosida to'plash;
- vazn asoslari, nota va she'r matni ustida ish olib borish.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

1. Jahon miqyosidagi tanilgan xor jamoalari va ularning repertuarini o'rganish.
2. Xor festivallari, konkursleri, ko'riklari va ularda qatnashgan jamoalar ijodini o'rganish.
3. O'zbekistondagi professional, o'quv xor jamoalari va ularning ijodi haqida.

Dasturning axborot-uslubiy ta'minoti

Xor sinfi fanini o'qitishda multimedia jihozlaridan foydalanib, mavzular bo'yicha ishlab chiqilgan POWER POINT formatdagi jadvallardan, kompyuter, audio va video jihozlaridan foydalaniladi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar davomida xorga oid tarqatma materiallar, slaydlar hamda ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. Bundan tashqari quyidagilar ham qo'llaniladi.

- didaktik materiallar tayyorlash;
- audio va video jihozlari;
- musiqiy-badiiy taxlil metodi
- internet tarmog'i saytlari.
- taqqoslash-qiyoslash metodi .

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar:

- 1.Sharafiyeva N. Xor sinfi. Musiqa nashriyoti. O'quv qo'llanma-T.: 2005.
- 2.Shomaxmudova B.V. Xor lug'ati. Toshkent. "Musiqa" 2009.
- 3.Choral Techniques **By:**Gordon Lamb c o n n e x i o n s Rice University, Houston, Texas < <http://cnx.org/content/col11191/1.1/> > 173-175

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Vatanim manim" Qo'shiqlar to'plami.1,2,3,4,-Toshkent. 1997-2001 y.
2. Mustaqillik taronalari (qo'shiqlar to'plami). G'.G'ulom. T.,2001 y.

Internet saytlari:

1. www.artist.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.edu.uz
4. www.jazz.ru
5. www.atmuzik.ru

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:

“TASDIQLAYMAN”

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

№ _____

201_ y. « __ » _____

“ __ ” _____ 201_ yil

XOR SINFI

FANINING

ISHCHI O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100 000	–Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	150 000	–San’at
Ta’lim yo‘nalishi:	5111000	-Kasb ta’limi(5151600- Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi))

Talabanning o‘quv yuklamasi, soat								Semestrlar, soat							
Umumiy yuklama hajmi	Auditoriya mashg‘ulotlari						Mustaqil ish	1	2	3	4	5	6	7	8
	Jami	Ma’ruza	Amaliy mashg‘ulot	Laboratoriya ishi (yakka)	Seminar	Kurs loyihasi (ishi)									
900	600		600	-	-	-	300	2	4	4	2	4	4	2	4

Toshkent – 2016

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida №BD-5151600-3.10; raqam bilan 08 avgust 2016 yilda ro'yxatga olingan namunaviy o'quv dasturi asosida tuzilgan

Tuzuvchilar:

Malikova D.M.– O'zDSMI, «Vokal» kafedrasida dotsent v.b.

Mansurbekova F.G. – O'zDSMI, «Vokal» kafedrasida katta o'qituvchisi.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Vokal" kafedrasining 201_ yil _ _-son yig'ilishida muhokama etildi va institutning Badiiy-o'quv-uslubiy Kengashiga tavsiya etildi

Kafedra mudiri:

Pirmatov Sh.T.

Kotib:

Eminov N.Q

O'quv ish o'quv dasturi institutning Badiiy-o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi ("__" _____ 2016 yil, 1-sonli bayonnoma)

Badiiy-o'quv-uslubiy kengash raisi _____ R.Ismoilov

Fanning dolzarbligi

Yosh avlodning musiqiy –estetik tarbiyasi bilan shugʻullanish,shu tariqa talabalarning bevosita musiqiy qobiliyatini rivojlantirish – fanning ezgu maqsadlaridan biri. Mutaxassislik fanlari orasida “Xor sinfi” fani asosiy fan boʻlib alohida oʻringa egadir.

“Xor sinfi” fani kasb taʼlimi vocal ijrochiligi yoʻnalishi bakalavr mutaxassisligi boʻlajak pedagoglarni musiqiy qobiliyatini yanada rivojlantirish, shakllantirish va jamoa bilan ishlash mahorati sanʼati koʻnikmalarini oʻrgatishga asoslanadi. Ushbu fanda dirijyorga vocal - xor jamoalariga rahbarlik qilish, xor asarlari ustida ishlash, xor partituralarini alohida oʻrganish, xar bir ovoz guruhlarini shakllantirish (nafas,tiniq soz, tallafuz, artikulyatsiya, tembr, ritmik va dinamik ansambllar) , tashkilotchilik qobiliyati, pedagogik va vokal – xor texnik malakalari yanada mukammal oʻrgatiladi.

Fanni oʻzlashtirishda xormeysterlik, tashkilotchilik, xonandalik, musiqiy-nazariy tahlil qilish, jamoa bilan ishlash koʻnikmalari hosil boʻladi.

“Xor sinfi” fani - vocal – xor ijrochilik tarixi, turli davrlarda yaratilgan jahon va oʻzbek kompozitorlari, xormeysterlar, xor jamoalari shox asarlari ijrosi va ijodi namunalarini oʻrgatishni qamrab olib, amaliy bilim koʻnikmalarini takomillashtiradi va malakasini oshiradi. Fanni oʻqitish dasturi milliy va xorijiy tajribalar asosida tayyorlangan.

Fanning oʻquv rejadagi boshqa fanlar bilan oʻzaro bogʻliqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

Xor sinfi fani 1-8 semestrlarda oʻqitiladi. Xor sinfi fani: dirijyorlik, dirijorlik amaliyoti, vokal, ovoz postanovkasi, vokal ansambli, solfedjio, musiqa nazariyasi garmoniya , xor partiturasini oʻqish , fortepiano va xor bilan ishlash uslubiyoti kabi fanlarni oʻzlashtirish zarur. Bu fanlar vokal - xor jamoalari bilan ishlash texnik asoslarini oʻzlashtirish,shuningdek musiqiy badiiy ifoda vositalarini takomillashtirish imkoniyatlarini beradi.

Fanning ilm fan va sanʼat sohasidagi oʻrni

Xor boʻlib kuylash insonni nafaqat maʼdaniy -maʼrifiy jihatdan tafakkurini kengaytiradi, boyitadi, balki uni fiziologik (oʻpka, ovoz apparati) psixologik-xissiy tuygʻularini rivojlanishiga, jamoa boʻlib ijod qilishga oʻrgatadi. Xor sanʼati

yosh avlodni ma'naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga, ularni birlashtirishga xizmat qilib, estetik zavq beradi.

Fanning o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'quv mashg'ulotlarini loyihalash

Talabalarning "Xor sinfi" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot–pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallar, audio-video materiallardan foydalaniladi. Amaliy mashg'ulotlarda chet el va o'zbek kompozitorlari hamda bastakorlarini yangi asarlari o'rgatilib, asarlarni mazmunan va musiqiy tahlil etishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Fan o'qituvchisi tomonidan pedagogik va modulli texnologiya tamoyillari asosida "Xor sinfi" fani amaliy o'quv mashg'ulotlarining loyihalari ishlab chiqiladi.

Fan modulining dasturi (module Syllabus)

O'quv kursining to'liq nomi	Xor sinfi		
Kursning qisqacha nomi:	XS		XS
Kafedra:	Vokal		
O'qituvchi haqida ma'lumot:	1.Malikova Dilbar Mirsagdiyevna 2. Mansurbekova Feruza Gayratovna		Dilbar.malikova.1957@mail.uz Feruza 0171.inbox.uz
Semestr va o'quv kursinig davomiyligi:	1-8 semestrlar 136 hafta		
O'quv soatlari xajmi:	Jami:	900	
	Shuningdek:		
	Ma'ruza:	-	
	Amaliy:	600	

	Seminar:	-	
	Yakka:	-	
	Mustaqil ta'lim:	300	
O'quv kursining statusi:	Umumiy kasbiy fanlar bloki		
Dastlabki tayorgarlik:	Kurs "Xor sinfi" fanidan o'zlashtirililgan bilimlarga asoslanadi		
Fanning predmeti va mazmuni: talabalarga xor sinfi sohasi yuzasidan nazariy va amaliy bilim berish, soha yuzasidan talabalarining ko'nikma va malakalariga takomillashtirishga yo'naltirilgan. Xor bilan ishlash amaliyoti davomida turli davrda yozilgan asarlarni o'rganish talabalarining vocal bilimlarini va ma'naviy tarbiyasini oshirish, xor sinfi kursining asosiy vazifasi xisoblanadi. Fanni o'qitishdan maqsad: "Xor sinfi" fanini o'qitishdan maqsad talabalarni: - vokal-xor dirijyorligi va ijrochiligi yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali kadrlar yetishtirish; - vokal-xor san'ati sohasi bo'yicha ko'nikma va malakasini shakllantirish; - vokal-xor san'ati ijrosi qonuniyatlarini his etib o'rganish; - turli xarakterdagi vokal-xor asarlarning badiiy-musiqiy g'oyasini chuqur tushuna bilish qobiliyatini tarbiyalash; - jahon vokal- xor san'atining ilg'or tajribalariga tayangan holda mavjud o'zbek vokal-xor maktabini takomillashtirish va davom ettirish; - zamonaviy talablarga javob bera oladigan g'oyaviy va badiiy asarlar repertuar tanlash usullarini o'rgatish; - kontsertlar, turli asarlar ijrosi orqali badiiy-musiqiy g'oyalarni ro'yobga chiqarishdir. Fanning vazifasi: "Xor sinfi" fanini o'rganish jarayonida bakalavr quyidagilarni bajara olishi lozim: - to'g'ri tovush hosil qilishi; - vokal-xor san'ati haqida bilishi; - nafas va zanjir nafasda kuylash malakalari;			

- ovoz mashqlarini ijro etishi;
- kuylash yo'llari:legato, non legato va stakkato;
- ritmik to'g'ri kuylashi;
- talaffuz ustida ishlashi;
- dinamik nyuanslarda kuylashi;
- musiqiy frazalarni garmonik akkordlarini his etishi;
- umumiy xor ansambli;
- jamoa bo'lib kuylash holatlari;
- xor ijrochiligining amaliy asoslari;
- musiqiy tovush sozi va sofligi;
- a'kapella asarlarini kuylashi;
- jo'rli asarlarni kuylashi;
- musiqiy asarlarni intonatsion sof ijro etishi;
- asarlar mualliflari haqida ma'lumotlarni bilishi;
- akademik xor yo'nalishidagi asarlarning tonalligini aniqlashi;
- xonandalar xor ijrochiligining o'zaro ta'siri;
- ijro mahoratini oshirish usullari;
- ko'p ovozli ansambllarda kuylashi;
- yakka va jamoa ijrochiligining o'zaro uyg'unligini ;
- yakkaxon va xor ijrochisi sifatida kuylashi;
- saxna madaniyatiga rioya qilish;
- fonatekadan va audio yozuvlardan samarali foydalanishi;
- xor jamoasi rahbari sifatida jamoani boshqarish;
- rahbar ko'rsatmasiga amal qilish;
- asarlarning badiiy-musiqiy obrazlari ustida ishlashi;

**“Xor sinfi” fanidan amaliy mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha
taqsimlanishi
1-semestr**

T.r.	Mavzular nomi	Amaliy mashg'ulot	Mustaqil ta'lim soatlari	Jami
1	Xor san'ati haqida..	3	2	5
2	* Xor janri uslublari .”Renessans davri Barokko davri*“Klassik davr”.	7	3	10

	*“Romantik davr”. Repertuar tanlash.			
3	Ovoz mashqlari. Asarlarda musiqiy frazalarni intonatsion sof kuylash ustida ishlash	7	4	11
4	Nafas va zanjir nafas malakalari	7	3	10
5	Kuylash yo’llari:legato, non legato va stakkato.	7	4	11
6	Asarlarda musiqiy frazalarini garmonik akkordlari ustida ishlash.	7	3	10
7	Umumiy xor ansambli: ritmik,dinamik, intonatsiya ustida ishlash	14	6	20
8	Asarlarda talaffuz ustida ishlash.	7	4	11
9	Dinamik nyuanslar ustida ishlash.	7	3	10
10	Asarlarning badiiy-musiqiy obrazlari ustida ishlas va konsert chiqishlari uchun tayyorgarlik	6	4	10
Jami		72	36	108

2-semestr

T.r.	Amaliy mashg’ulotlarning tarkibiy qismlari	Auditoriya soatlari	Mustaqil ta’lim soatlari	Jami
1	Xor san’ati haqida..	3	2	5
2	* Xor janri uslublari .”Renessans davri Barokko davri*“Klassik davr”. *”Romantik davr”. Repertuar tanlash.	7	3	10
3	Ovoz mashqlari. Asarlarda musiqiy frazalarni intonatsion sof kuylash ustida ishlash	7	4	11
4	Nafas va zanjir nafas malakalari	7	3	10

5	Kuylash yo'llari:legato, non legato va stakkato.	7	4	11
6	Asarlarda musiqiy frazalarini garmonik akkordlari ustida ishlash.	7	3	10
7	Umumiy xor ansambli: ritmik,dinamik, intonatsiya ustida ishlash	14	6	20
8	Asarlarda talaffuz ustida ishlash.	7	4	11
9	Dinamik nyuanslar ustida ishlash.	7	3	10
10	Asarlarning badiiy-musiqiy obrazlari ustida ishlas va konsert chiqishlari uchun tayyorgarlik	6	4	10
Jami		72	36	108

Talabalar bilimini baholash tizimi:

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari				
		Maks.	1-JN	2-JN	3-JN	4-JN
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi.	17	0-4	0-4	0-4	0-5
2	Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, ijodiy jarayonlardagi mahorati.	18	0-4	0-4	0-5	0-5
3	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi.	17	0-4	0-5	0-4	0-4
4	Ijodiy jarayondagi repertuarlarning ijro sifati. Tashkilotchiligi.	18	0-5	0-5	0-4	0-4
Jami JN ballari		70	17	18	17	18

Yakuniy nazorat dasturning yakuniy ijrosi natijisiga qarab maksimal 30 ball orqali baholanadi.

Asosiy adabiyotlar:

26. Sharafiyeva N. Xor sinfi. Musiqa nashriyoti. O'quv qo'llanma-T.: 2005.
27. Shomaxmudova B.V. Xor lug'ati. Toshkent. "Musiqa" 2009.
28. Romanovskiy N. Xorovoy slovar Izd.3. Uchebnoe

	posobie-L.:Muzika. 1980. 29. Choral techniques By: Gordon Lamb Online: < http://cnx.org/content/col11191/1.1/ > Connexions Rice University,Houston,Texas
Qo'shimcha adabiyotlar:	1."Xorovaya miniatyura". Muzika L.1980 y. 2. "O'zbekiston Vatanim manim" Qo'shiqlar to'plami.1,2,3,4,- Toshkent. 1997-2001 y. 3. "Proizvedeniya dlya smeionnogo i jenskogo xora" Muzika M.1977 y. 4. Mustaqillik taronalari (qo'shiqlar to'plami). G'.G'ulom. T.,2001 y.

ASOSIY QISM

Fanning amaliy mashg'ulotlari mazmuni

1-modul. Xor san'ati haqida.

Xor san'ati tarixi asosan yevropada yaralib, akademik yo'nalishda kuylangan.

Xor – yunonchadan-“ **choros**” jamlovchi tushuncha: xor, yig'in, to'da kabi ma'nolarni anglatadi:

1. Qadimiy grek antik teatri ishtirokchilari jamoasi, birgalikda kuylovchi, deklamatsiya etuvchi;
2. Jo'rsiz va jo'rli vokal asarlarni ijro etuvchi jamoa.

Xorlar turlari va tuzilishi bo'yicha turli ko'rinishlarda bo'ladi. Ular:bolalar, ayollar, erkaklar va aralash xorlar. Jamoalar ikki, uch va undan ko'p ovozlardan iborat bo'ladi.

